

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY PEDAGOG XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

UMUMIY PSIXOLOGIYA FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

NAVOIY-2005 yil

Ma'ruza matni tuzuvchilar: dots. X.Bobomirzayev, dots. B. O'tanov, katta o'qituvchi M. Xalilova.

Taqrizchilar: psixologiya fanlari doktori, professor SH.Barotov, psixologiya fanlari nomzodi F.Ro'ziqulov.

© Navoiy davlat pedagogika instituti - 2005

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARB VAZIFALARI

Psixologiya fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos nazariy va amaliy vazifalarga ega. Bu vazifalar mustaqillik davridagi qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», hamda «Uzliksiz ta'lim standartlari davlat tizimi» talablardan kelib chiqqan holda ilmiy, nazariy va uslubiy asoslarga ega. Bularning barchasi milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish asosida amalga oshadi. Shuning uchun ham hozirgi zamon psixologiyasini quyidagi yo'nalishlarda dolzarb vazifalarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

1. Psixologiya fanining ilmiy vazifalariga shu fan qonuniyatlari asosida nazariy va amaliy bilimlarga tayangan holda zamon ruxidagi shaxslarning o'rganishga qaratilgan faoliyat jarayonini tashkil etadi. Shuning bilan birgalikda uning metodologik asoslarini shu fan yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari, yangiliklar, psixologiyaga oid qonunlar va bir qator bugungi zamon ruxini bayon etadigan adabiyotlar ro'yxati tashkil etadi. Ushbu keltirilgan faktlar psixologiyaning ilmiy vazifalarini ochib

berishda mustaqil O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan faoliyat jarayoniga milliy istiqloq g'oyalarini singdiruvchi jamiyat a'zolarini barkamolligini belgilab beradi.

2. Psixologiyaning nazariy vazifalari: shu fanning qonuniyatlarini, metodlarini, prinsiplari, statistik ma'lumotlarga asoslangan holda shaxsning psixik xususiyatlari va prosesslarini, fiziologik jihatlarini o'z ichiga oladi.

3. Psixologiyaning amaliy vazifalari: shu fanni o'rganish jarayonida olgan nazariy bilimlarni amaliyot jarayonida qo'llay bilish, jamoada sog'lom zamon talablariga javob bera oladigan shaxslarni o'zaro munosabatlarini to'g'ri yo'lga quyish, milliy g'oya va mafkura talablari asosida faoliyat jarayonini shakllantirishdan iboratdir. Shu asnodda biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod Vatan erkin va farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiladigan komil va fozil raqobatbardosh zamon ruxidagi shaxslarni tarbiyalash va ular talabini qondiradigan muxitni yaratishdir.

4. Hozirgi zamon psixologiyasi milliy istiqloq g'oyalaridan kelib chiqib milliy, etnik va xalq psixologiyasiga oid ajdodlarimizning psixologik qarashlarini, ular tomonidan bayon etilib o'z aksini topgan tarixiy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy manbalarni hozirgi kun talablari nuqtai – nazaridan taqvim etib barkamol shaxsni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda uning o'ziga xos shakllarini, yo'l va usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

5. Psixologiyaning qarama-qarshi metodlar bunda psixologik qarama-qarshi ot metodi muammosi, psixologiyadan qarama-qarshi metodi muammosi, psixologiyadan qarama-qarshi metodlari tarixidan qisqacha ma'lumot berilib, kuzatish va o'zini kuzatish, bu metodlarning bilishdagi roli, savol-javob, tajriba va psixologik testlar ustida to'xtaladi. Shu bilan birga har bir metodning afzalligi va kamchiliklari, bunday metodlarni amalda qo'llashning qulay shart-sharoitlari, ishonchli psixologik bilimlarni olish uchun matematikaning ahamiyati, psixologik tajribalarda hisoblash va boshqa texnikalarni qo'llash ustida fikr yuritiladi.

6. Psixologiyaning tabiiy-ilmiy asoslari.

a) Odam markaziy nerv tizimini tuzilishi, uning ishi (vazifalari) va xususiyatlari. Bunda odam nerv tizimining umumiy tuzilishi, uning markaziy va periferik qismi, bosh miyaning tuzilishi, har bir neyronning tuzilishi va uning ish tartibi, "reseptor" tushunchasi va uning turlari, "analizator" tushunchasi, odam bosh miya qobig'ining tuzilishi va uning asosiy maydonlari satxi qismlari ustida, bosh miya qobig'ida sodir bo'ladigan asosiy psixik jarayonlar va kishining psixik holatlari, retikulyar formasiyalarining markaziy nerv tizimida to'tgan o'rni, uning roli va vazifalari ustida batafsil fikr yuritiladi.

B) Psixik va odam miyasi bunda nerv bog'lanishlarining prinsipi va umumiy mexanizmlari, psixik hodisalarning miya ishi bilan bog'liqligi, miyaning asosiy bloklari, ishi, ularning psixik jarayonlari bilan aloqasi va xulq-atvor, hatti-harakatlarini boshqarishdagi, psixik hodisalar va miyaning ayrim tuzilishining bir xildagi o'zaro ta'siri, muammolari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

V) Odam miyasida sodir bo'ladigan psixik holatlarning anatom-fiziologik xususiyatlari bunda sezgilarning tarkib topishida ishtirok etadigan miya tuzilishi va tanamizdagi a'zolarining fiziologik mexanizmlari ustida gap boradi.

G) Psixologiya va hulq-atvorning genetik ildizi bunda odam psixologiyasi va uning hulq-atvori, hatti-harakatlari rivojlanishida genetika va muhit, biologik va ijtimoiy omillarni tushuntirish muammolari, irsiyat mexanizmlari haqidagi tasavvurlar asosida bu masalani hal qilishga birinchi o'rinlari, odam psixologiyasi va uning hulq-atvorining genetik ta'sirlarining egizaklar metodi yordamida tadqiq qilishhaqida fikr yuritilib, monizigot va dizigot egizaklar o'rganganligi masalalarni ochib o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, psixologlar bilan tarixchi, falsafa va sosiolog va pedagoglarning ilmiy qarama - qarshiotlarini ochib borishdagi o'zaro hamkorligi to'g'risida so'z boradi.

7. Psixologiya va inson haqidagi fanlar.

Bunda psixologiya bilan tarix psixologiya va sosiologiya hamda psixologiya bilan pedagogika fanlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik psixologlar bilan tarixchi, falsafa va sosiolog pedagoglarning ilmiy qarama - qarshiotlarini ochib borishdagi o'zaro hamkorligi tug'risida so'z boradi.

8. Odam va hayvon psixikasining taraqqiyoti. Tirik mavjudotda psixikaning paydo bo'lishi, psixika va uning mohiyatini materialistik nuqtai nazardan tushunish, psixik aks ettirish xususiyatlari, psixik aks ettirishning signal harakter, psixikaga ega jonzodlarning idrok qilish xususiyatlari va bunday ta'sirlarining biologik ahamiyati molik emasligi, nerv tizimining paydo bo'lishi va uning psixik taraqqiyotdagi roli, psixika takomillashuvining asosiy mexanizmlari asosiy mexanizmlari organizmning faoliyatini boshqarishning yuksak darajasi ekanligi, mazkur muammoni yechishda materialistik yondashish ustida gap boradi.

1. Hulq-atvor, hatti-harakat va psixikaning quyi formalarining paydo bo'lishi bunda hayvonlarda psixik aks ettirishning rivojlanishi, psixik aks ettirish darajasi, uning, bosqichlari, amaliyot faoliyati va harakat faoligini roli, hayvon psixikasi hulq-atvori taraqqiyoti darajasini belgilab beruvchi omillar, elementlar sensor psixika davri, uning quyi va yuqori darajasi, perspektiv psixika davri, uning quyi va yuqori darajasi, perspektiv psixika davri, uning taraqqiyotidagi analogik darajalar hayvonlarda ko'zga tashlanadigan intellektual hatti-harakatlarning turlari, hayvonlar faoliyatidagi oriyentirovka tekshirish davrlarini alohida ajratib ko'rsatish, hayvonlarda oldingi oyoqlardan manipulyasiya a'zolari tariqasida foydalanish dunyoda psixik taraqqiyot boshlanishi va uning mohiyati nuqtai-nazaridan tushuntirish to'g'risida fikr yuritiladi.

2. Odam yuksak psixik funksiyalarining taraqqiy etishi bunda, yuksak psixik funksiyalar haqida tushuncha beriladi. Odamda yuksak psixik funksiyalar taraqqiy etishining asosiy manbalari: qurol-aslahalar tayyorlash va uni ishlab chiqarish, kuoldan foydalana bilishi, faoliyatning samarasi va ijodiy harakteri egaligi, moddiy va ma'naviy boylik buyumlarni yaratish, nutqqa va boshqa belgilar tizimida muloqot vositasi tariqasida foydalanish, tafakkurni ishga sola olish, bilimlarni esda saqlay olish va uni boshqarish. Odamning yuksak psixik funksiyalari tariqasida idrok, diqqat va tafakkurni bolalikda berilgan element formalarini hal qilish. Faoliyatning bilish manbai, muloqotning esa odamning shaxsiy taraqqiyoti manbai ekanligi. Odam faoliyatining bir-biridan qiladigan asosiy belgilari ustida fikr yuritiladi.

3. Odam va hayvon psixikasini taqqoslash. Bunda hayvon va odamdagi bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol va xotira) takkoslab o'rganiladi Odam va hayvon intellekt, ulardagi tasavvur va tafakkur, odam va hayvondagi emosional hayot, odam hayvondagi hulq-atvor, hatti - harakatlarining motivi, odam va hayvondagi muloqot usullarining o'ziga xosligi. Odamning individual jamoatchilik hatti - harakatlaria namoyon bo'ladigan ijtimoiy va tabiiy (tug'ma) hulq-atvori, hatti - harakatlarini tushuntirib va uni oldindan aytib berishda uning biosoidal tabiatini hisobga olish zarurligi o'rganiladi

10. Psixologiyaning nazariy va amaliy vazifalari.

Hayot psixologiya zimmasiga murakkab nazariy va amaliy vazifalarni yuklaydi. Psixologiyaning nazariy vazifasi psixik faoliyatini, uning sodir bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish psixologiyaning amaliy vazifasi insonning hayoti va faoliyati jarayoni da uning psixikasini o'rganish, unga ta'sir etish va boshqarishdir.

Psixologiyaning asosiy prinsiplari.

- 1.Sub'yektiv asosga nisbatan ob'yektiv asosning birlamchiligi prinsipi.
- 2.Psixika taraqqiyoti da faoliyatning yetakchi rol o'ynashi prinsipi.
- 3.Psixik hodisalarning o'zaro bog'liqlik prinsipi.
- 4.Psixik faoliyatini o'rganishda ob'yektivlik prinsipi.
- 5.Nazariya va amaliyetning bog'liqligi prinsipi.
- 6.Determinizm prinsipi.

FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Ma'lumki, inson o'z tabiati jihatidan faol (ya'ni har doim bir maqsad asosida harakat qiladigan) mavjudotdir. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha psixik proseslari va shaxsiy psixologik xususiyatlari uning turli-tuman faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Faoliyat doimo organizm bilan muhitning o'zaro bir-biriga ta'sir qilibturishinipg ifodasidir. Bu faoliyat ayrim hollarda tashqi tomongi ifodalasa (harakatlarda, yurish-turishlarida ifodalansa ichki va tashqi harakatlar bir butunlikda namoon bo'ladi. Hayvonlarning faoliyati sistemasi va psixikasining rivojlanganligiga qarab birmuncha murakkab bo'lishi mumkin, ammo ularning hayoti har qanday hollarda ham tashqi borliqning talabiga organizmning biologik moslashishi bilangina chegaralanadi.

Odamning hulq-atvori, faoliyati esa tomomila boshqacha harakterdadir. Inson hayvonlar hatti-harakatlaridan farq qilib,

avvalo, ijtimoiy harakterga egadir. Inson o'zining sa'iharakatlarini ilk yoshidanok, butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga yo'naltirilib boradi. Hatti- harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoski, uni ifodalash uchun maxsus termin- faoliyat termini qo'llaniladi. Inson faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlaridan yana biri u bilish jarayonlari va iroda bilan chambarchas bog'liq bo'ladi ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas. Faoliyat kishining anglanilgan maqsad bilan boshqaribturiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faoliyat bo'lib hisoblanadi. Organiq, ya'ni tirik materiya dastavval juda sodda bir hujayrali organizm tariqasida yuzaga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Psixikaning rivojlanishi haqida gapirishdan oldin «rivojlanish» tushunchasiga ta'rif berishimiz kerak. Rivojlanish bu harakatlanish o'zgarishdir. Lekin har qanday harakatlanish o'zgarish ham rivojlanish bo'lavermaydi. Bundan milliard yillardan ko'proq mukaddam rivojlanish tufayli yer yuzida neorganik materiyaning jonli organiq materiya paydo, bo'lgan. Jonli organizmlar o'z rivojlanish davrida oddiy bir hujayrali mavjudotdan oliy shakldagi hayvonlargacha, shu jumladan insongacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Tirik organizmning dastavval paydo bo'lgan davrdan boshlab hozirgi eng yuksak organizm, ya'ni odamgacha bo'lgan rivojlanish yo'lini odatda evolyusion taraqqiyot deb yuritiladi. Rivojlanish ksidasi umumiy harakterga egadir. Tabiat rivojlanadi, ishlab chiqarish usullari, kishilarning ijtimoiy hayot formalari rivojlanadi. Shuningdek psixika ham rivojlanadi.

Psixikaning rivojlanishini umuman tirik organizmlar rivojlanishi kabi ikki reja asosida o'rganish mumkin: filogenez va ontogenez rejasi asosida. Filogenez - organizmning oddiy shakllaridan tortib hozirgi zamon kishisiga qadar butun bir biologik rivojlanish jarayonida yuz bergan o'zgarishdir. Ontogenez har bir individning hayoti davomida uning tug'ilishidan "tortib to o'lgunga qadar sodir bo'lgan o'zgarish yig'indisidir. Yerda hayotning paydo bo'lishi materiya taraqqiyoti dagi yangi bosqichdir, bu bosqichda materiya o'z tuzilishiga ko'ra ancha murakkab va alohida xossalarga ega bo'lgan. Jonsiz, neorganiq materiyaning tortib, to oliy va murakkab materiya hisoblanish kishi miyasiga kvdar barcha materiallar moddiy olamning yalpi xususiyati-in'ikos etish xususiyatiga, ya'ni taasurotlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. In'ikos materiyaning mavjud bo'lish shakllariga bog'liq bo'ladi: in'ikos tashqi taasurotlarga materiyaning ta'sir qilishi harakteri va mavjud bo'lish tarziga muvofiq javob qaytarishga qodirligi bilan namoyon bo'ladi. Materiya harakatining biologik shakli Hayot- tabiat rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidir. O'simlik va hayvonlarga mansub shakllar evolyusiyaning barcha bosqichlarida jamiki jonli organizmlar in'ikosning alohida biologik shakli ta'sirlanuvchanlikka ega bo'lgan (biotik) ta'sirlarning ta'siriga javob berish qobiliyati demakdir. Oliy ta'sirlanuvchanlik butun hamma tirik organizmlarga xos bo'lgan umumiy biologik xususiyatlaridir. Seskanuvchanlik aks ettirishning ancha umumiy hamma. tirik organizmlar uchun xos bo'lgan biologik formasidir. U Faqat modda almashinuvi va, uning bo'zilishiga aloqador bo'lgan ko'zgovchilariga nisbatan paydo bo'ladi. Masalan, o'simlik yorug'likdan ta'sirlanadi (tropiz hodisasi) chunki yorug'lik energiyasi o'simlikni uglevod bilan ta'minlaydigan shart-sharoitlar hisoblanadi Seskanuvchanlik-psixikaning paydo bo'lishida zaruriy xususiyat majburiy shart-sharoitdir. Hayvonlarga mansub shakllarda ta'sirlanuvchaylikning yangi-turi sezuvchanlik paydo bo'ladi. A.N. Leonovning farazlariga ko'raseduvchanlik genetik jihatdan Karaganda muhitning organizmni boshqa taasurotlar bilan bog'lovchiorganizmni muhitda mo'ljal olishiga yerdam beruvchi signallik vazifasini o'tovchi ta'sirlariga javob ta'siridan bo'laknarsa emas. Ta'sirlanuvchanlikdan

sezuvchanlikka o'tish hayot tarzining o'zgachaligi bilan bog'liqdir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda sezuvchanlik oshib sezgi organlari shakllanadi. Psixikaning eng oddiy formasi bu orgapizmning sezuvchanligi biologik jihatdan neytral, lekin zamon va makon jihatdan biologik ahamiyatga ega bo'lgan ko'zatuvchilarga nisbatan kaytariladigan reaksiyalarning hosil bo'lishidir. Masalan, hayvon ovkatning hidiga (hid modda almashuvi bevosita ishtirok etmaydi) nisbatan reaksiyasi, yemish qidirmish unga yaqinlashish kabilar, hayvonning hidiga nisbatan sezuvchanlik, demak psixikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Psixika aks ettirishni yangi va yuksak formasi sifatida yashash sharoitlarining murakkablashuvi va tirik organizmlarning muhitga moslashuvi zaruriyati tufayli paydo bo'lgan materiyaning sifat jihatidan o'zgarishi aks ettirish usullarining takomillashuviga va hatti-harakatlarining yanada maqsadga muvofiq hamda epchil shakllanishining paydo bo'lishiga olib keladi. Taraqqiyotning elementar sensor bosqichdan kompleks ko'zatuvlarning, predmetlarning butunligicha aks ettirish bilan ifodalanadigan qobiliyatga ya'ni perseptiv aks ettirishga o'tish amalga oshiriladi. Hayvon biologik ahamiyatga ega bo'lgan ko'zatuvchilarga nisbatan emas balki hayotiy muhim kuzatuvchilarning seminarlaridan iborat bo'lgan befarq, ya'ni neytral qo'zg'atuvchilar belgilarining yig'indisiga nisbatan ham moslasha oladigan bo'ladi. Tirik organizmnieig tejam vositalari bilan hayotning ta'mirlash imkoniyat psixikataraqqiyoti ni harakatga keltiruvchi kuchga aylantiradi. Tirik organizmning psixik rivojlanish jarayoni bir-biridan tamomila ajralib turuvchi ikki davrni o'z ichiga oladi: hayvonlar psixikasining rivojlanishi, bu rivojlanish biologik qonuniyatlarga: irsiyat, o'zgaruvchanlik, tabiat, saralash qonunlariga buysunadi va odam ongi rivojlanadi. Evolyusion taraqqiyot davomida psixikaning eng sodda ko'rinishida inson ongigacha taraqqiyot bir qancha bosqichlardan iborat bo'lgan, boshqacha aytganda, tirik organizmlarda o'zluksiz o'zgarib turuvchi Hayot sharoitlariga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakat formalari, masalan, harakatning instektiv shakli, harakatning individual shakli va harakatning intellektual shakli maydonga kela boshladi. Evolyusion taraqqiyot davomida yuksak rivojlanishga erishgan hayvonlar maydonga kelishi bilan birga ularning tashqi olamni aks ettirishlari, ya'ni o'zgaruvchan muhitga muvofiqlashuvlari ham murakkablashib boradi. Instinktiv harakat deganda, biz hayvonlarga tug'ma yo'l bilan tayyor holda beriladigan va ularning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakatlar shaklini tushunamiz. Hayvonlarning instinktiv harakat shakllari nihoyatda mustahkamlangan, nisbatan juda syokin o'zgaradigan harakatlardir. Hayvonlarning instinktiv harakatlari ularning tashqi muhitga muvofiqlashuvlarini ta'minlaydigan va deyarli bir xil tarzda bajariladigan harakat shakllari hisoblanadi. Evolyusion taraqqiyot davomida murakkab taraqqiy etgan hayvonlarda ya'ni umurtka suyakli va sut emizuvchi hayvonlar hatti-harakatning individual shakllari yuzaga keladi. Harakatning individual shakllari asosida hayvonlarda turli-tuman ko'nikmalar yuzaga keladi. Harakatning individual shakllari va ko'nikmalarini yuzaga kelishi hayvonlarda shartli reflekslar, ya'ni muvakkat aloqalarning hosil bo'lishi bilan o'zviy bog'liqdir. Evolyusion taraqqiyot yuksak bosqichdagi ayrim hayvonlarda intellektual shakli paydo bo'ldi. Bu yuksak taraqqiyotga—erishgan maymunlar, delfinlar va itlarda odam ongiga o'xshash farosat bilan bog'liq bo'lgan hatti-harakat shakllaridir. Harakatning intellektual shakliga ega bo'lgan hayvonlar ma'lum vaziyatda bir qadar farosat bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, masaladriini hal qila oladilar. Lekin bu hatti-harakatlar ham tashqi muhitga muvofiqlashish usullaridan biri bo'lib, bu harakatlar ham ongli bo'lmaydi.

Olimlarning qarama-qarshi otlaridan ma'lum bo'lishicha, bu harakatlarning asosida organizmga nasliy yo'l bilan taper holda beriladigan shartsiz reflekslarga individual Hayot davomida orttiriladigan shartli reflekslar sistemasi yetadi. Inson ongi o'z mohiyatiga ko'ra hayvonlarning instinktiv, individual va intellektual harakat formalaridan batamom boshqacha nihoyatda murakkab hodisadir. Inson ongi evolyusion taraqqiyoti ning eng so'nggi bosqichi, ya'ni inson taraqqiyoti bosqichidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyottufayli tarkib topgan. Inson ongi insonning o'zi bilan birga deyarli bir vaqtda maydonga kelgan. Ong tarixiy taraqqiyotning, ikkinchi yo'nalishi odamlarning amaliy faoliyatlari bilan amalga oshiriladigan va tekshirib kuriladigan inson bilish faoliyatining doimo rivojlanish jarayonidir. Ongning tabiati ong odamning borliq haqiqatini aks etgirish formasi tariqasida keladi. Ongning asosiy belgilari, odam ongining psixologik karakteristikasi, so'z va ma'noning ongini tashkilqiluvchi tushunchalar sifatida kelishi, odam ongining borliqdagi narsa va hodisalarni, ularning eng barqaror muhim belgilar va xususiyatlarini ma'lum

darajada so'z bilan umumlashtirish sifatida kelishganligi haqida atroflicha keng fikr yuritiladi. Ongning paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti deganda, inson ongi paydo bo'lishining dastlabki shart-sharoitlari, odamning birgalikdagi mahsuliy faoliyati, mehnat taksimoti kishilar o'rtasida muloqotning borgan sari faollashib borishi, tilning ishlab chiqilishi va unda turli so'z signallari, belgilar tizimidan foydalanish, insonning moddiy va ma'naviy madaniyatining, inson boyliklarining yaratilishi, tu bilan birga ongning filogenetik va ontogenetik taraqqiotidagi asosiy yo'nalishi, odamda refleks qobiliyatining paydo bo'lishining tarakkiyeti to'g'risida fikr yuritish, tushunchalar tizimining yuzaga kelishi. Fan yutuqlari, madaniyati, ishlab chiqarish korxonalari, bilish va kishining o'z-o'zini boshqarishning yangi vositalari paydo bo'lishi ongning rivojlanishining ta'minlovchi omillar, hozirgi zamon sharoitida ong o'sishining asosiy yo'nalishlari va odam ongini taraqqiy etirishda kelajakda ijtimoiy o'zgarishlar va istikbollar nazarda tutiladi. Ong va ongsizlik, bunda ongsizlik haqida tushuncha berilib, psixik jarayonlarda, odamning psixik xususiyatlari va psixik holatlarda ongsizlik holatlarining ko'rinishi, odam shaxsidagi ongsizlik, tush ko'rishning ongsizlikning namayon bo'lish sifatidagi, odamning o'z hulq-atvorini ongli va ongsiz boshqarish o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ongsiz psixik holatlarining turlari haqida mulohaza yuritiladi. Agar ong obe'tiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuksak usuli tariqasida odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan bo'lsa, ongsizlik odam ongiga borib yetmaydigan psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar va psixik holatlardir. Bunday hodisalarga ong osti holatlari ham deyiladi. Shunday ekan, odamdagi barcha psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar psixik holatlar Faqatong bilangina emas, balki bunday holatlarni boshqarishda ongsizlik holatlari bo'lar ekan. Shuning uchun ham ongsizlik holatlari barcha psixik jarayonlarida, his-tuyg'ularida, odamning psixik xususiyatlari va psixik holatlarida ro'y berishi mumkin. Odam shaxsidagi ongsizlik holatlari kishining o'zi anglamagan xolla qiziqishi va ehtiyojlarini bajarishga intilishidir. Bunda hatti- harakatlar turlicha ixtiyorsiz reaksiyalarda, hulq-atvorda, psixik hodisalarda namoyon bo'ladi. Ongsizlik holatlarining ikkinchi guruhi asosida ongsizlik holatlarining uchinchi guruhi kishining idroki, xotirasi va xayoli bilan bog'lanib ketadi: Jumladan, tush ko'rishshirin hayol orzu. Ongsizlik holatlari ba'zan kishining ongiga singib qolgan axloq normalari orqali nazorat qilinishi ham mumkin. Ongsizlik holatlarini atroflicha tushuntirib berishda psixoanalizdan foydalaniladi.

MOTIVASIYA VA EMOSIYA PSIXOLOGIYASI

Insonni xatEi-harakatga va faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Odamning hulq-atvoriga qarabuning hatti- harakatlarini tahlil qilib ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Faqat ana shunday hollarda mazkur xatgi-harakat odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligi haqida fikr yuritish mumkin. Bunday harakatlarning yana takrorlanishi oldindan bilish, shaxsiy hislarining ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Odamning faoliyat motivlarini o'rganish, shaxsiy ma'naviy psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ba'zilar mehnatga o'z ehtiyojlariga ko'ra sidqidildan munosabatda bo'lsalar, ba'zilar o'z burchlarini anglaganliklaridan, yana ba'zilar o'zlarining qabih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun'iy munosabatda bo'ladilar. Hissiyot tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizning va munosabatlarimizdan hosil bo'ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirishda. Hissiyot o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarning bevosita emas, balki shu narsalarning aks ettirish jarayonida hosil bo'ladigan ichki kechinmalari va munosabatlari aks ettiriladi. Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai-nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Hissiyot olamda sodir bo'layotgan narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar sistemasi hisoblanadi Ma'lum qo'zg'alishlar odam uchun xotirjamlik yoki notinchlik haqidagi fikrlarga aylanadi. Ifodalangan hatti-harakat (mimika va pantomimika) signal funksiyasini bajaradi. Ular odamning kechinmalarini boyitadi, yorqinlashtiradi va boshqa odamlarning idrok qilishini yengillashtiradi. Hissiyotlarning boshqaruvchanlik funksiyasi shunda namoyon bo'ladiki, barqaror kechinmalar bizning hulqimizni yo'naltiradi va qarama-qarshiliklarni

yengishga undaydi. Emosiyalarni boshqaruvchi mexanizmi kuchli emosional qo'zg'alishni kamaytiradi. Odamlarning hayotida bo'ladigan qayg'u kulfat kabi psixik holatlar xavflidir.

Hissiyot uch turga bo'linadi

1. Axloqiy hislar.
2. Intellektual hislar.
3. Estetik hislar.

Axloqiy hislar - shaxsning, odamlarining va o'zini hulq-atvoriga emosional munosabatda ifodalanadi. Shaxs bu hislarni kechirar ekan, ijtimoiy axloqiy prinsiplari va normalarga asoslanib boshqa odamlarning hatti-harakatlariga yoki psixik xususiyatlariga hamda o'zining xususiy hatti-harakatlariga hislari ham kiradi. Intellektual hislar deb, aqliy faoliyat jarayonida hosil bo'ladigan kechinmalariga aytiladi. Ushbu his ham haqqoniy fikrlarga soxta ajablanarli, shubhali tushunarli yoki tushunib bo'lmaydigan, xayratda qoldiradigan fikrlarga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Intellektual hislariga ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatini ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmagan xayratda qoldiradigan narsaga qaratish odamning bilish ehtiyojlarini qondirishga intilish. Ajablanish odamning bilish bilan bog'liq faoliyatini yuzaga keltirishga undovchi omillardan biridir. Estetik hislar deganda biz, go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik his hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Estetik hislarini yuzaga keltiruvchi manbalar juda ko'p va xilma-xildir. Masalan: tasviriy san'at, badiiy adabiyot asarlari, musiqa va haykaltaroshlik, arxitektura me'morlik ishlari ham odatda estetik his tug'diradi. Bundan tashqari odamlarining qiyinishi, boshqalar bilan muomilasi ham estetik hislarimizning manbai bo'la oladi. Odam shirin muomilali, gapni o'rinli va madaniy qilib gapiradigan kishidan zavqlanadi. Iroda odamning biron maqsad yo'lida ongli ravishda qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan hatti-harakatidir. Irodaviy faoliyatda odam o'zini idora qiladi, xususiy ixtiyorsiz impulslarni nazorat qiladi. Iroda tormozlovchi va boshqaruvchi mexanizmlarga ega. Hulqni irodaviy boshqarish - ongli ravishda aqliy va jismoniy kuchni maqsadga erishishiga qaratilishi yoki aktivlikdan o'zini ushlab turishidir. Iroda aktiv maqsadni anglash, qarorga kelish, rejalashtirish, bajarish, irodaviy zo'r berish kabi murakkab mexanizmdan iborat.

Shaxsning irodaviy sifatlariga:

- 1) Mustaqillik,
- 2) Katilylik,
- 3) Dadilik
- 4) O'zini tuta olishlik kiradi.

Odam tayyor iroda va irodaviy sifatlar bilan tutalmaydi. Organizmning o'sishi irodaning taraqqiy etishi uchun faqat imkoniyat beradi. Odam irodasi o'sib borayotgan avlodga katta avlodning uyushgan tartibda ma'lum maqsadni ko'zlab ta'sir etish jarayonida taraqqiy topadi. Irodani tarbiyalash kattalar va o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga talab quyilishi va uni bajarilishiga erishmoq lozim.

SHAXS PSIXOLOGIYA

Jamiyat taraqqiyotida inson bosh omil, shu jamiyatning rivojlantiruvchisi bo'lib hisoblanadi. Uning shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, tarbiyalanish ana shu jamiyatda yuz beradi. Insonning shaxs sifatida tarkib topishi. Unga ta'sir etuvchi omillar, uning mexanizmlari haqida psixologiya fani aniq ma'lumotdariga ega. Inson dunyoga odam bo'lib keladi. Odamning shunchaki insoniyat vakili sifatida baholanishi termini bilan bog'liq. Hamma odamlar, u yangi tug'ilgan yoki katga, sog'lom yoki kasal bo'lsa ham, uning sifatleri va xususiyatlaridan kat'iy nazar individ deb ataladi. «Individ» tushunchasida odamning xayoli-nasabi mujassamlashganligidir. Qachonki individ ongli

ravishda va maqsad sari ma'lum bir faoliyatda atrof-muhitni anglasa va yaratuvchanlik hissaini kushsa uni su'yekt deb atash mumkin. Ayrim faoliyatda ishtirok etuvchi individ hamma vaqt shu faoliyatni sub'yekti bo'la olmaydi. Chunki har doim ham individ bajarayotgan hatti-harakatlarni anglamaydi va maqsadga qaratilgan holda ularni amalga oshirmaydi. O'qituvchilarning topshiriklarini odatga ko'ra tashqi ta'sir natijasida amalga oshirgan o'quvchigina o'quv faoliyatining haqiqiy sub'yekti bo'ladi. Har bir individ takrorlanmas sosial fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgandagina u shaxs bo'lib yetishadi. Psixologiyada tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil

qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzidagi sosial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi. «Shaxs» va «Individ» tushunchalari haqida yetakchi rus psixologlari B.G.Anan'yev, A.N. Leontev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn kabilar o'z qarama - qarshiotlarida alohida tuxtalganlar, Xususan A.N.Leontev shaxsni individ tomonidan egallab olingan alohida fazilat, inson munosabatlari to'liqindagi sistemali «g'ayri hissiy» fazilatlar egasi ekanligini ta'kidlaydi. Shaxs haqida to'xtalar ekanmiz. Psixologik jihatdan shaxs bo'lib hisoblanmagan individning mavjud bo'lishi va aksincha individning konkret shaxs sifatida mavjud bo'lishi mumkin? - degan, savol tug'iladi. Shaxs sifatida kamolatga erishmagan individ bo'ladi. Buni hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar misolida olish mumkin. Lekin individni shaxsga aylanishida qanday omillar zarur. Umuman shaxs deb kimga aytamiz? Shaxs haqida ta'rif berilganda rus psixologi S.Rubinshteynning fikrlariga tuxtalmok darkor. Olimning ta'kidlashishcha. Odam o'zida takrorlanmas xususiyatlariga ko'raindividualdir. Odamning o'z atrof dagilarga. Borliqqa bo'lgan ongli munosabati, uning biron bir faoliyat bilan shug'ullanishi esa uni shaxs ekanligidan dadolatdir. Shaxs odamning atrofga bo'lgan munosabatlarini va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof muhitga bo'lgan munosabatlari uning dunyo karashida, intilishlarida, qiziqishlarida ishonchlarida va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida eng muhimi, uning faoliyatida ifodalanadi. Demak, shaxs bu onga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy –iktisodiy formasiyada yashaydigan. Ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadigan odam individdir. Shaxsning tarkib topishi uzoq muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir shaxs ijtimoiy taraqqiyot maxsuli sifatida juda ko'p fanlarning o'rganish, ob'yekti hisoblanadi jumladan, falsafa. Sosiologiya pedagogika, psixologiya, etika tibbiyot va boshqa fanlar uning turli tomonlarini o'ziga xos tarzda tadqiqi etadi.

1. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
2. Shaxs shakllanish haqida gaprar ekanmiz, albata u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir.

Mana masalan, biron masalada inson shaxsniig tarkib topishiga aktiv ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos ijtimoiy muhit bor degan ma'noni bildiradi. Bu yerda shunday bir savol tug'iladi. Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta'sir qiladi?

-birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qiladi?

- birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib unda chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurok va mustahkamrok bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki bolalar o'z tabiatlariga ko'ra ilk yoshlik chog'laridan boshlab nixoyat darajada talabchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha hatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu hatti-harakatlarini, yaxshi yomon fazilatlarini o'zlariga singdirib boradilar. Shuning uchun bolalar oilada, ko'cha-kuyda katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan ko'zatib turadilar. Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhitning roli haqida gap borar ekan, shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim g'ayri tabiy hodisalar inson shaxsini tarkib topishida tashqi muhit ta'sirini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tula tasdiklaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday hadisalar juda siyrak bo'lsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, Hindistonlik doktor Sing Kalkutga yaqinidagi o'rmonzorda buri bolalar orasida ikkita qiz bolalarini topgan edi. Shuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim tarbiyaning ta'sir deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida ya'ni bog'cha maktab, internet, lesey va kollejlarda beriladigan ta'lim tarbiya tushuniladi.

Biroq bundan oilada bolaga beriladigan ta'lim tarbiya mutlaqo mustasno emas! Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari oilada beriladigan ta'lim tarbiyaning roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanadigan va umuman shug'ullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.

3. Shaxsning psixologik harakteristikasi.

Shaxsning strukturasi va uning yuzaga kelishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib o'sib kelayotgan inson shaxsini proyektirlash va diagnostika qilish, uning shakllanishi uchun eng kelayotgan va samarali yo'llarini aniqlash mumkin emas. Ma'lumki, inson shaxsi o'zini urab turgan narsalar va sosial olam bilan faol munosabat prosesida tarkib topadi, o'zini oshkor qiladi. Odamning «antogenetik» taraqqiyoti va shaxsning tarkib bo'lishi jarayonida biologik va ijtimoiy faktorlar o'zaro munosabatga kirishib, tashqi taa'ssurot effektini ta'minlovchi kuchli ichki sharoitni yuzaga keltiradilar. Ana shunday sharoitlarda odamning anatomik fiziologik layoqatlari shunchaki o'zini oshkor qilibkolmay, balki shaxs faoliyati sifatida odamning psixik faoliyati va nisbatan mustahkam psixik xususiyatlari va ularning sistemalarini taminlab, neyrodinamik va sensor - persiptiv organlarning ma'lum funksional ahamiyatiga ega bo'lgan mexanizmlar tarzida taraqqiy etadi, o'zgaradi va tarki topadi.

4. Shaxsning imkoniyatlari.

Haqiqatdan ham yashash o'zining tabiiy va madaniy extiyojlarini qondirish uchun, hamda atrof-muhitga alohida yondashish uchun ma'lum darajada imkoniyatlari bo'lishi kerak. Odam insivid tug'ilishda nasliy yo'l bilan insonning hayoti uchun juda zarur bo'lgan faqat ko'rtak imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bu imkoniyatning o'zi odamda o'zidan oldingi avlodning ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirish jarayonida, kattalar bilan muommalarda ta'lim va tarbiya jarayonlarida tarkib topadi. Shuning uchun ham odamning bolaligidan, ya'ni ushbu tajribalarini o'zlashtirib olishi davrida, mustaqil hayot uchun o'z imkoniyatlarini tarkib toptiradi va rivojlantiradi. Buning uchun u juda ko'p shug'ullanishi hatto o'z hayotining 14 qismini ba'zan undan ham ko'proq vaqt talab qiladi. Maqsadga muvofiq hayot kechirish uchun shaxs imkoniyatlari nimalar. asosida yig'iladi. Bu imkoniyatlar quyidagilardan jamg'arilgan bo'ladi:

1. Bilimlar,
2. Ko'nikma va malakalar.
3. Intuntiv va evrestik jarayonlar orqali
4. Qobiliyatlar.
5. Tabiat, odam, jamiyat.

Muloqot

Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi. Odamlar o'rtasida axborot almashishi o'zaro ta'sirining yagona yo'lini ishlab chiqish, o'zgalarning idrok va tushunib boholash harakteriga ega. Pedagogik munosabat deganda pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayri boshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikning tashkil etishdan iborat sistemasi, usullari va malakalari tushuniladi. Nutq bu kommunikasiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: Yozma va og'zaki nutq o'z navbatidagi og'zaki nutq diologik va manalogik nutqlariga ajraladi. Og'zaki nutqning eng sodda turi diolog, ya'ni alla qanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan ham suhbatlar tomonidan olib borilayotgan suhbat hisoblanadi Og'zaki nutqning ikkinchi bir turi manolog nutq bo'lib uni bitta kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko'plab kishilarga qarata gapiradi. Yozma nutq insoniyat tarixida og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'lgan. Yozma nutq fan foydalaniladigan murakkab umumlashmalarni rivojlantirishda, badiiy timsollarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra ehitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Nutqni programmashtirish, nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini

tuzishda birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich jumlaning sintaktik strukturasi tuzishdan iboratdir. Bog'lanish lotincha so'z, ya'ni «yaqinlashish» degan so'zdan olingan. Munosabatga kiruvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqa bo'lishini taqozo etadi. Bunga erishish va ko'ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatiga kirishuvi shaxslarning, o'zaro bir-biriga hurmat va ishonchdan iboratdir. Agar pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va xurmat bilan munosabatda bo'lsa, u har qancha prensipial va talabchan bo'lgan takdirda ham, uning eng arzimas tanbixlari ham ta'sirli bo'ladi. Munosabat jarayonlarini har doim va barcha vaziyatlarda ham sip-silliqqina va ichki qarama-qarshiliklarsiz yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar vaziyatlar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar ayatoginizmi yuzaga chiqadiki, ba'zan bu o'zaro do'latni keltirib chiqaradigan shaxslararo majaro sodir bo'ladi. Majorolarning kelib chiqishiga, shuningdek, munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikda harakat qilishlariga g'ov bo'lgan va bartaraf etilmagan manaviy anglashilmovchilik ham sabab bo'ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik bu aytilgan talabning iltimosning, buyruqning ma'nosi munosabat bog'lashga sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu xol ularning o'zaro ham jihatligi va birgalikda harakat qilish uchun to'sqinlik tug'diradi. Muloqotning o'zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatdan tashqarida uning perspektiv munosabat ishtirokchilarining uning jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro idrok etishi yuzaga keladi. Taniqli psixolog S.L.Rubinshteyn shunday deb yozgan edi. «Kundalik hayotga odamlar bilan muomalaga kirishar ekanmiz, biz ularning hulq-atvoriga mo'ljal olamiz. Negaki biz ularni tanqidiy ma'lumotlariga ma'lumotlari mohiyatini go'yo ukib, ya'ni mag'zini chaqib chiqamiz va shu yo'sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday o'qish naridan beri tez yuz beradi, chunki tevarak atrofdagilar bilan muomila jarayonida avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi. Muomala prioritetiv jihat bu kishining kishi tomonidan idrok, etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Identifikatsiyalash bir kishi ikkinchi kishini uning ta'rifini o'z ta'rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usulidir. Steriotiplashtirish hulq-atvor shakllarini tavsiflash va ularning hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan ya'ni ijtimoiy qoliplariga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish bilan ularning sabablarini o'zgartirishdan iboratdir. Odamlardan samarali muomila o'rtanish malakalarini tasodifiy ravishda topadi yoki ta'limning yordamchi maxsul sifatida yuz beradi. Katta maktab yoshida o'quvchilar hulq-atvori qoidalariga ommabop adabiyotlarini o'qir ekan, muloqot madaniyatining ba'zi jihatlari bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarini maxsus urnatilishi alohida bir vazifa bo'lib, pedagog uchun uning qanchalik gung ekanligini tirening ya'ni muomilaning mashq qilinishi bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sosial psixolog tirening yoki muomala tirening ya'ni muomalaning mashq kilinish bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sosial psixolog tirening mazmunan ikki xil-vazifani:

1. Muomalaning va shu jumladan pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlari.
2. Pedagogik kommunikatsiyaning texnologiyasini egallash ya'ni professional pedagogik muomala va malakalari shakllanishini o'z ichiga oladi.

Psixologik pedagogik tirening shakllaridan yana biri tipik pedagogik vaziyatlarining misol uchun imtixonlarini modellashtiruvchi amaliy o'yinlari, muomala tirening, ya'ni muomalaning mashq qilish o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish sistemasida pedagogik ishning shakli bo'lib, pedagogik ta'lim uchun juda istiqbolli hisoblanadi.

DIQQAT

Diqqat - deb ongimizning bir nutqaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga aktiv yo'naltirilganiga aytiladi. Diqqat shunday muhim psixologik holatki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng sodda faoliyatdan tortib, eng murakkab faoliyatni ham diqqatning

ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Diqqat sezgi, xotira tafakkur va harakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli, diqqatni biror narsaga karatish ob'yektiga bog'liq holda diqqatning namoyon bo'lishini quyidagi shakllarini: sensor, aqliy harakatlantiruvchi shakllarini ajratib ko'rsatadilar. Hozirgi vaqtda sensor (ko'rish va eshitish) diqqati ko'proq o'rganilgan. Diqqatning fiziologik asoslarini tushunib yetishga buyuk rus fiziologlari I.P.Pavlov va AA. Uxtomskiylarning ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega. Ner sistemasining alohida reaksiyalari oriyentir reflekslar haqida I.P.Pavlov ilgari surgan tassavurda extiyorsiz diqqatning g'ayri ixtiyoriy tabiati haqida taxmin bor edi. Hozirgi zamon ma'lumotlariga qaraganda oriyentir reflekslar juda ham murakkabdir. Ular organizmni anchagina qismlarining faolligi bilan bog'langan. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini tushunib yetishda dominanta (nasldan-naslga utuvchi asosiy belgi) prinsipi alohida ahamiyatga ega A.A.Uxtomskiyning fikriga ko'ra miyada hamisha qo'zg'alishning ustun va hukmronlik qilish markazi mavjud bo'ladi. Diqqat miya faoligini muayyan darajasida yuz berishi mumkin. Shunday qilib diqqat bir qator tuzilishlari faoliyati bilan bog'liqdir. Lekin diqqatning har xil shakllari va turlarini tarbiyaga solishdir ularning roli turlicha. Hosil xususiyatlariga va amal usullariga kura diqqatning ikkita asosiy turi ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari mavjud. Ixtiyoriy diqqat ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat va e'tibordir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz zahirida hosil bo'lgan, ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yo'nalganligiga ham bog'liqdir. Masalan, teatr bilan qizikadigan kishi, extimol futbol bo'yicha bo'lgan haqidagi e'longa e'tibor bermasdan ayni chog'da teatrga oid yangi e'lonni tezrok payqash lozim. Ixtiyoriy diqqatning asosiy vazifasi psixik jarayonning ketishini faol boshqarib turishdan iborat. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida to'ring psixologiyaga N.F.Davrinin tomonidan joriy etilgan. Ixtiyoriydan so'ng diqqat ixtiyoriy diqqatdan keyin namoyon bo'lgan holda shuning o'zidagina iborat deb hisoblash mumkin emas. Bu diqqat anglanilgan holda ilgari surilgan maqsad bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bu ixtiyorsiz diqqatdagina iborat qilibqiyilishi ham mumkin emas. Diqqat turlicha sifat ko'rinishlari bilan ta'riflanadi. Diqqatning barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va ko'lami shular jumlasiga kiradi. Diqqat. barqarorligi diqqatga qaratilgan ob'yektlarning xususiyatlariga va yo'naltirilgan shaxsning faollikka bog'liq bo'ladi. Diqqatning ko'chishi sub'yektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatiga, bir obektdan ikkinchi obektga, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab o'tishidan iborat bo'ladi.

Diqqatning ko'chirilishining muvaffaqiyati bir qancha shart- sharoitlari bilan bog'liqdir ko'chirish oldingi va keyingi faoliyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Diqqatning ko'chirilishida anchagina individual farqlar mavjud. Ba'zi bir faoliyatini qo'yib ikkinchisini bajarishga tez va oson kiritib ketsa boshqalarga bunday tarzga o'tish uchun uzok vaqt, anchagina kuch-g'ayrat sarflashga to'g'ri keladi. Hozirgi ko'pgina kasblar aynan diqqatning ko'chuvchanligiga nisbatan yuksak talablar quymokda. Diqqatning ko'chishi o'qitish jarayonida ham katta ahamiyatga egadir. Diqqatning ko'chishi bilan bir qatorda uning bo'linishini ham alohida ajratib ko'rsatadilar. Diqqatning bo'linishi deganda uning asosiy faoliyatidan uning muvaffakiyatli tarzda bajarish uchun ahamiyatsiz ob'yektlarga ixtiyorsiz ko'chirilish tushuniladi. Diqqatning tasvirlanishi ikkita va undan ko'proq faoliyat turlarini ayni bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati bilan bog'liq xususiyatdir. Diqqatning yuksak darajada taqsimlanishi ko'pgina hozirgi zamon mehnat turlari muvaffaqiyatligini muqarrar shartlaridan biridir. Operatorlar ko'plab dastgohlarda ishlovchilarga va boshqalarning ishi va shuni talab qiladi. Diqqat taqsimlanish mumkinligini bir qatorda bir qancha shart-sharoitga bog'liqdir. Faoliyatni birgalikda bajariladigan turlari yoki hal etiladigan vazifalari qanchalik murakkab bo'lsa, diqqatga aylanishi ham shunchalik qiyin bo'ladi.

SEZGI VA IDROK

Odam sezgilar orqali moddiy borliqdagi barcha predmeti va hodisalari o'z ongida aks ettiradi, tashqi dunyoning predmetlari va voqea hodisalari munosabatini bog'laydi, tashqi kuzatuvchilarning sezgi a'zolari uzluksiz ta'sir etishi tufayli sezgi vujudga keladi. Odamni o'rab turgan olamdagi narsa va hodisalarni turli xil belgi va xususiyatlari sezgilarda aks etadi. Jumladan, ko'rish sezgisi orqali yorug'lik turlarini ranglarni eshitish sezgisi orqali nafas olish natijasida butun bo'shligiga havo zarrachalarini ta'siri,

predmetlarning teriga ta'siri natijasida teri sezgilari hosil bo'ladi. Sezgilari o'z mohiyati jihatidan shaxsning barcha bilimlari uchun asosi va manba hisoblanadi. Sezgilari tufayligina idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va xayol kabi ruhiy jarayonlar hosil bo'ladi. Odamning sezgilari orqali tashqi dunyo voqea hodisalarini bilish quyidagi uch bosqichdan iborat.

1. Tashqi dunyodagi predmetlar va voqea hodisalar sezgi a'zosiga (reseptorga) ta'sir etadi. Bu ta'sir tegishli nervlarni harakatga keltiradi, natijada qo'zg'alish vujudga keladi. Bu qo'zg'alish maxsus nervlar yordamida bosh miyaga yetkaziladi. Bosh miya po'stining markaziy hujayralar tizimida, qo'zg'alish yuz beradi. Ushbu uch bosqichdan iborat bo'lgan sezuvchi nerv apparati mashhur rus fiziologi akademik I.P.Pavlov ta'limotida analizator deb ataladi.

Ya'ni, biror predmet yoki voqea-hodisaning ta'sirini bevosita aks ettiruvchi apparat analizator deyiladi. Analizatorlarning har uchala qismdan birortasi zarar ko'rsa, sezgi vujudga kelmaydi. Demak, sezgi deb, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolariga ta'siri natijasida vujudga keladigan va bu narsa yoki hodisalarning ayrim belgilarini aks ettiradigan psixik jarayonga aytiladi. Sezgilari tashqi ta'sirotlarining xarakteri, yo'nalishi va mazmuni bilan bog'liq holda quyidagi turlariga bo'linadi:

1. Ko'rish sezgilari.
2. Eshitish sezgilari.
3. Hidbilish sezgilari.
4. Ta'm yoki ma'za sezgilari.
5. Teri sezgilari.
6. Muskul va harakat sezgilari.
7. Organik sezgilari.

Ko'rish sezgisini analizatori ko'zdir. Bu sezgining qo'zg'ovchisi esa yorug'lik hisoblanadi. Ko'rish jarayonining yuzaga kelishi uchun ta'sirlovchi, ya'ni yorug'lik ko'zning to'r pardasidagi reseptorlarga ta'sir etish va ko'rish markaziga borgandagina biz ko'ramiz. Eshitish sezgisini analizatori quloq bo'lib, vazifasi tovushlarni sezishdir. Tovush chiqaruvchi jismdan har tomonga tarqaluvchi to'lqinlari eshitish sezgilarining qo'zg'atuvchisi hisoblanadi, ovoz to'lqinlarining tebrangan havo zarralari orqali quloqqa kirishi natijasida eshitish sezgisi vujudga keladi. Ichki quloqda joylashgan eshitish nervining uchidagi reseptorlardan tovush to'lqinlari eshitish orqali bosh miya katta yarim sharlari sohalariga borishi natijasida eshitish sezgisi bo'ladi. Hid bilish sezgisining analizatori bug'in bo'lib, bo'rinbo'shlig'ining yuqori qismida joylashgan hid bilish nervning reseptorlari qabul hid bilish nerv orqali bosh miyadagi hid bilish markazga borgandagina hidni sezamiz. Ta'm yoki ma'za tilda joylashgan reseptorlar orqali seziladi. Teri sezgilari yordamida oraginzmga biron narsaning tegishi, harorat va og'riq seziladi. Muskul, pay va bo'g'inlardagi proprioceptorlar deb ataladigan uchlarining tana harakati vaqtidagi qo'zg'alishi natijasida muskul harakat sezgilari paydo bo'ladi. Bu sezgilari odamga o'z organizmidagi barcha qismlarning holati va harakatlarini bilishga imkon beradi. Buning natijasida odam gavdasidagi har bir harakatni bilishga imkoni beradi. Organik sezgilarga ochlikni, chanqashni, ko'ngil aynishini, ortiqcha to'qligini va shu kabilarni sezish kiradi, ya'ni organizmlarining ichki holatini aks ettiradi. Organik sezgilarining sezuvchi nervlari ichki a'zolarining devorlari ham boshqa to'qimalarda joylashgan reseptorlari orqali taa'suroti seziladi. Barcha sezgi turlarida adaptasiya hodisasi mavjud bo'lib, organizmning har qanday sharoitda ham tashqi muhitning o'zgarishlariga va taa'surotlariga moslashish, ko'nikish imkoniyatlarini beradi. Sezgilari doimo ta'sirning kuchiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun sezgilari ma'lum chegara ichida hosil bo'ladi. Sezgilari doimo bir-biriga ta'sir etadi va o'zaro munosabatda bo'ladi. Analizatorlarning sezgilari insonning mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi va takomillashadi.

IDROK

Idrok bu borliqdagi predmet va hodisalarining aks ettirilayotganining yaxlitligini tushunish bilan bog'liq turli xususiyat hamda qismlar bilan birgalikda psixik aks ettirilishidir. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab bilish jarayonidir, ya'ni, uning murakkabligi shundan iboratki, agarda sezgilarda birorta analizator yoki sezgilar ishtirok etsa, idrok jarayonida bir qancha sezgilarimiz, tajribalarimiz ham ishtirok etadi. Idrokning natijasi doimo predmetning faqat ayrim xususiyat va sifatlarini aks ettiruvchi sezgisidan farq qilib doimo yaxlit predmetlikdir. Idrok to'liq, chala, yuzaki, aniq va xato yoki tezkor va sust bo'lishi mumkin. Bularning barchasi sezgi a'zolarining sezgilarga, oldin egallagan tajriba va bilimlarga, ko'z atishning diqqat e'tiborligiga idrok qiluvchi ning qobiliyatlari va aqliy ustunligiga, izchil idrok qilish hamda idrok qilinayotgan ob'yektning turli tomonlari va xususiyatlarini baxolay bilishga bog'liq bo'ladi. Idrok doimo konstantdir, ya'ni doimiydir. Konstantlik deb idrok obrazlarining o'z garmaslik turg'unlik holatiga aytiladi bunda fizik, sharoit o'zgarishi mumkin lekin obrazlar o'z garmaydi. Idrok tanlovchandir, yaxlitning zarurroq bo'lgan detallari aniq qilinadi. Ongning aktivligi idrokning tanlovchanligida namayon bo'ladi. Kishi idroki tafakur bilan mustahkam bog'liqdir. Voqelikdan narsa, hodisalarning ongda yaxlitligicha aks ettirishning o'zi idrokning anglangan holatidan dalolat beradi. Insonning ish faoliyatida o'z psixologik strukturasi ko'ra murakkab bo'lgan idroklar, masalan, vaqt, harakat, fazoni idrok qilish idroklar alohida ahamiyatga ega. Vaqtni idrok qilish tashqi dunyo hodisalari oqimining davomiyligi, izchilligi va tezligini, shuningdek, organizm hayot faoliyatining ichki ritmlari hamda sezgilaridan signal beruvchi qator sezgilarini umulashtiradi.

Vaqtni idrok qilishning asosini ko'rish vestibulyar, harakat va teri sezgilari tashkilotadi. Bo'lar birgalikda insonni gavdasining fazodagi holatini baxolash imkonini beradi. Fazo uch o'lchov asosida ko'rish eshitish va muskul harakat sezgi a'zolari orqali idrok qilinadi. Harakatni idrok qilish fazo vaqtdagi o'rin almashinuvlarini idrok qilish bo'lib, harakatni baholash vaq oraliqlarini idrok qilishga bog'liq bo'ladi, chunki fazodagi har qanday harakat tezligi va yo'nalishi bilan harakterlanadi. Idrok qiziqchilarimiz va irodemiz bilan qanday darajada bog'liqligiga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz idrokka ajratilishi mumkin. Ixtiyoriy idrok kuzatishda yaqqol namoyon bo'ladi. Kuzatish bu ma'lum, aniq anglangan maqsad bilan qilinadigan hamda ixtiyoriy diqqat yordamida amalga oshiriladigan ixtiyoriy rejali idrokdir. Faoliyat shakli bo'lgan kuzatish oreintirovka, ya'ni biron narsa haqida yetarlicha to'g'ri tasavvur olish, atrof muhitni anglay bilish bilan

o'zviy bog'liqdir, Oreintirovka jarayoni idroki shakli sifatida tafakkuri shakdi tarzidagi tushunish bilan o'zarobog'liqdir. Kuzatuvchanlik bu hodisa va predmetdagi ko'zga kam tashlanadigan biroq ayni vaqtda qandaydir maqsad uchun ahamiyatli yoki muhim bo'lgan detal, belgi yoki xususiyatlarini fahmlash qobiliyatlaridir. Kuzatuvchanlik bu ma'lum maqsad uchun ayniqsa narsalarni idrok qilishga doimo tayyor turishdir.

XOTIRA VA XAYOL

Xotira haqida tushuncha. Individning o'z tajribasini esda olib qolish esa saqlash va uni yana esga tushirish xotira deb ataladi. Xotirada esda olib qolish esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajralib ko'rsatiladi. Xotira mexanizmlarini o'rganish ning turli yo'nalishlari va nazariyalari mavjud. Assosiativ yo'nalishning markaziy tushunchasi assosizdan bo'lib aloqa bog'lanishni bildiradi. Tashqi olamdagi yuz beradigan hodisalar o'rtasidagi munosabatning bog'lanishlarning uch turi o'xshashligi, yondoshligi va qarama-qarshiligi bo'yicha bog'lanishlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Xotiraning geshtaltizm nazariyasining asosiy tushunchasi geshtalbit bir butun yaxlit tizimni ayrim qismlari yig'indisidagina iborat bo'lmagan struktura birligini anglatadi. Shaxs faoliyati nazariyasini binoan esda olib qolish esda saqlash qayta esga tushirish jarayonlarining amalga oshirishi muayyan materiallarining sub'yekt faoliyatidan qanday o'rinda turishi bilan belgilanadi. Xotiraning fiziologik mexanizmlari haqidagi nazariyalar M.P.Pavlovning oliy nerv haqidagi qonuniyatlari haqidagi ta'limotdan kelib chiqadi. Shartli refleks yangi mazmun bilan ilgari o'zlashtirib mustahkamlangan mazmun o'rtasida hosil qilinadigan

bog'lanish fakti sifatida esda olib qolish jarayonining fiziologik negizini tashkil etadi. Fizik nazariyasi muammolari esa har qanday nerv impulsi muayyan guruhga ta'lukli neyronlar orqali o'tganda fizik iz kolidiradi. Bu nazariya neyronni modeli nazariyasi deb ataladi. Xotiraning ximiyaviy nazariyasiga ko'ra tashqi kuzatuvchilari ta'siri ostida nerv hujayralarida ro'y beradigan o'ziga xos ximiyaviy o'zgarishdar, izlariniig mustahkamlanishi, esda qolish va qayta esga tushirish jarayonlari mexanizmlarining negizini tashkil etadi. Dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) genetik irsiy xotiraning , ribonuklein kislotasi (RNK) esa individual xotiraning asosiy hisoblanadi. Unitish jarayoni birinchi marta eksperimental ravishda nemis teixologlari tomonidan o'rganiladi. Ularning kuzatishicha, unitish material yod olgandan keyin ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa syokinlashadi. O'quv ishlarida u qonuniyatni hisobga olish muhimdir. Unitish esda olib qolinadigan materiallarining hajmiga bog'liqdir.

XOTIRA JARAYONLARI.

Esda olib qolish. U yoki bu materiallarining esda olib qolish shaxs faoliyatining vaqtulchoviga qisqa muddatli operativ va uzoq muddatli esda olib qolish turlari mavjud. Esda olib qolish jarayonlarining faoliyatlarining maqsadlariga muvofiq ikkita asosiy turi: ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolish farq qilinadi.

Ixtiyorsiz esda olib qolinadigan material o'z-o'zidan eslab kolganidek tuyuladi. Ixtiyorsiz esda olib qolishning unumli bo'lishi

uchun muayyan faoliyatida tutgan o'rin muhimdir. Ixtiyoriy esda olib qolish maxsus minemik harakatlar ya'ni asosiy maqsadida eslab qolishdan iborat bo'lgan harakatlar mahsulidir. Materiallarning mantiqli, anglatganligi, avvalgi tajriba bilan bog'ligiga esda olib qolishning zarur shartidir. qayta esga tushirish psixikaning ilgari mustahkamlangan mazmunini uzok muddatli xotiradan chiqarib olish va amaliy xotiraga o'tkazish yo'li bilan aktuallashtirish jarayoni sifatida ta'riflash mumkin. Aktuallashtirish jarayoni turli qiyinchilik darajasidan farqlanishi mumkin. Tanish biron bir ob'yektni takroran" idrok qilish, sharoiti qaytaesga tushirish demakdir qayta esga tushirish ham ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Ba'zan kerakli narsalarni eslash uchun faol qidiruv ishlarini olib borishimizga to'g'ri keladi. Bunday paytda esga tushirish eslash deb aytiladi. Eslash usullari orasida eng muhimlari quyidagilardan iborat: Plan tuzish, eslatadigan materiallarning obrazlariga asoslanish bevosita bog'lanish hosil qilish. Unutish ozmi ko'pmi darajasi chuqur bo'lishi mumkin. materia shaxs faoliyatida qancha kam ishtirok etsa, aktual hayotiy maqsadlarga erishishda qanchalik ahamiyati samimiy bo'lsa uni unutish shunchalik chuqur bo'ladi. Unutish maqsadga muvofiq hodisadir.

XOTIRA TURLARI

1.Xotiraning ayrim turlari. Uchta asosiy nizomga muvofiq tarzda bo'linadi:

2. U faoliyatida ko'proq sezilib turadigan psixik faoliyatining

xususiyatiga qarabxotira harakat, imosional obrazli va so'z mantiqli turlarga bo'linadi.

3. Faoliyatining maqsadlari xususiyatiga ko'ra ixtiyorsiz va ixtiyorli turlarga bo'linadi.

4. Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga

ko'ra (uning faoliyatidagi roli va tutgan o'rniga bog'liq ravishda qisqa muddatli, uzok va operativ xotira turlariga bo'linadi) harakat xotirasi turli xildagi harakatlarni esda olib qolish va qaytaesga tushirishdan iborat.

Emosional xotira his hayajon xotiradir. Obraz xotirasi tasavvurini tabiat va holat manzaralarini tovushlarini hidlarni, ta'mlarni esda olib qolishdan iborat xotira hisoblanadi. Bizning uy fikrlarimiz so'z mantiq signal sistemasi asosiy rol uynaydi. Biron narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda olib qolish va yana qayta esga tushirish ixtiyorsiz xotira deb ataladi. Biron maqsad quyib olish ixtiyoriy xotiradir. Bunda xotira jarayonlari o'ziga xos tarzidagi minimik harakatlar sifatida yuzaga chiqadi. Esda olib qolishning eng dastlabki ham tashqiy ta'sirlarining izlari

mustahkamligiga qadar ma'lum vaqtni talab etadi. Bu vaqtdagi jarayonlar mexanizmlari axbarotini esda qolish va qayta esga tushirishning alohida bir turi hisoblanadi. Bu jarayoni qisqa muddatli xotira deb ataladi. Operativ xotira tuyunchasi kim tomonidan bevosita amalga oshirilgayotgan harakatlar faoliyati uchun xizmat qilayotgan minmik jarayonlarni anglatadi. Operativ xotiraning xususiyatini uni izohli va qisqa muddatda xotiradan farqlab turadi. Operativ xotirada u yoki bu turdagi xotiradan kelib turadigan materiallar mavjud.

XOTIRANING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Xotiradagi individual farqlar shunday hollarda namoyon bo'ladiki ba'zan obrazli materiallarni (tasvirlar, tovushlar, ranglar v.h.) bir muncha samarali esda olib qoladiganlar, boshqa birovlar esa so'zli materiallarni (tushunchalar, fikrlar, sonlar v.h.) yaxshi saqlab qoladilar, uchinchi toifa odamlarda esa eslab qolishda yaqqolusullik sezilmaydi. Shunga muvofiq ravishda psixologiyada xotiraning ko'rgazmali, obrazli, so'z-abstrakt va orqali turli farqlanadi. O'qituvchi o'quvchilar xotirasidagi individual farqlarni hisobga olish zarur, shuning bilan birga o'quvchilarning xotirasini har tomonlama rivojlantirish kerak. O'quv materiali xilma-xilligining o'zi shuni talab qiladi, o'quv materiallarining xilma-xilligi o'quvchilar xotirasini har tomonlama rivojlantirish uchun maksimal sharoit yaratadi.

XAYOL

Insonning bilshs jarayonlari strukturasi alohida ahamiyatga ega. Bu psixik jarayonni yerdamida inson faoliyati maxsulotining obrazini avvaldan tasavvur qiladi, utmish va kelajakni ko'raoladi. Xayol inson faoliyatining zarur elementlaridan bo'lib, uning mavjud (tasavvurlari asosida yangi obrazlarning miyada paydo bo'lishidir. Sezgi, idrok, tafakkur jarayonlari vositasida odam narsa va hodisalarning xossalarini bilib, uni xotirasida saklaydi. informasiya esa xayol obrazlari uchun kurilish material bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur va xayol muammoli vaziyatning oz yoki ko'proq noaniqlikda berilganligi bilan farqlanadi. Yechilayotgan masalaning dastlabki ma'lumotlarini ayniqsa, uni yechish tafakkur qonuniyatlariga buysunadi. Agar provlemali vaziyat noaniqlik bilan ajralib tursa bunday holda xayol mexanizmi ishga tushadi. Xayolning kimmati shundan iboratki, u zarur material bo'lmagan joyda kam, tafakko'ring qandaydir bosqichlaridan sakrab o'tish va so'ngi natijani tasavvur qilish imkoniyatin beradi.

XAYOL TURLARI

Xayol aktiv jarayondir. Ammo ayrim hollarda faoliyatning o'rnida yuzaga keladi. Odam o'zi ham hal qila olmaydigandek ko'rinadigan masallardan, turmush qiyinchiliklaridan real tasavvurlardan uzoq, ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydigan ish harakat programmalarini belgilaydigan jarayon xayolning va shakli tasvir xayol turlariga bo'lish mumkin qayta tiklovchi xayol tasvirlash, nigoh chizmalari asosida paydo bo'lib hosil bo'lgan predmet yoki hodisa bevosita idrok etilmagan bo'lishi, mumkin ammo o'z asosida biror mashina yoki detali obrazlar, geografik kartalar hosil qiluvchi tasavvurlar bunga misol bo'la oladi. Ijodiy xayol esa shu paytgacha mavjud bo'lmagan belgi predmetlarning obrazini yaratishdir. Psixologik tatkikotlar ijodiy obrazlar yaratishning bir necha usuli borligin ko'rsatadi. Agglyutinasiya ayrim predmetlarning bo'laklari yoki sifatlari (yopishtirib), yangi obraz hosil qilinadi. Masalan (kentavr) suv pariysi obrazlar shu usul bilan hosil qilingan. Giperbolizasiya narsalarning yoki ularning bo'laklarini kattalashtirish. Kichiklashtirish ko'paytirish usuli bilan yangi obraz yaratishdir. Yetti boshli ajdar, dev, no'xat polvon obrazlari bunga misol bo'la oladi. Urg'u berirsh usulida esa predmetning biror belgisi alohida ajralib tasvirlanadi. Karikatura shu usul bilan yaratiladi. Atrof muhit tartibsiz holda joylashgan alohida sifat va belgilarini sistemaga solish usuli deyiladi, masalan rassom o'simliklar dunyosiga andoza olib, naqsh yaratadi. Tipzasiya usuli murakkab usul bo'lib, ma'lum guruhga tegishli odamlar, predmetlar va hodisalar umumiy xususiyatlarini birlashtirib sintez qilishdir. Badiiy asarlardagi qahramonlar obrazi hayotdagi ularga o'xshash kishilarning eng tipik sifatlarini birlashtiradi. Xayol katta miya yarim sharlari

po'stlog'ining funksiyasi hisoblanadi. Shuning bilan birga xayolning fiziologik mexanizmlari. Faqat miya po'stlog'i bilan emas, balki miyaning chuqurroq qismlari bilan bog'liqdir. Xayol jarayonida nerv hujayralarining eski bog'lanishlari o'rniga yangi bog'lanishlar yuzaga keladi. Bolalar xayolining rivojlanishi: Bolalar fantaziyasi kattalarnikidan ko'ra kuchliroqligi haqida tasavvurlar aslida to'g'ri emas. Bu holatni shunday tushuntirish mumkin. Bolalarda xayol bevosita tafakkurdan avvalroq paydo bo'ladi va rivojlanadi. Ularning fantaziya bo'ligi esa tanqidiy fikrlashning zaifligi okibatidadir. Ijodiy tafakkur esa bolalarda umumiy aqliy taraqqiyotasosida rivojlanadi. fantaziya bola shaxsi normal taraqqiyoti ning muhim shartidir. Bog'cha yeshidagi davrda bola hayoti avval tashqi tayanishga (o'yinchoklarga) suyanadigan faoliyatda so'zlar bevosita sodda (ertaklar, hikoyalar to'qish) va badiiy (rasm chizish) ijodiyotni amalga oshirishga imkon beradigan mustaqil faoliyatta aylana boradi. Bolaning xayoli nutq o'sishi bilan, binobarin katta odamlar bilan qiladigan muloqoti jarayonida rivojlanadi. Shu narsa ma'lumki, bola nutqi taraqqiyoti susayishi xayolning taraqqiyotiga, uning orqada qolishga ta'sir ko'rsatadi. Orzu ko'pincha xayol jarayoni odam amalga oshirishni istaydigan timsollar shakliga, ya'ni alohida ichki faoliyat shakliga kirib oladi. Ana shunday odam kelajakda xoxlaydigan timsollar orzu deb ataladi. Orzu odamning voqelikka o'zgartirishga qaratidigan ijodiy kuchlarini hayotga tadbiiq qilmishning zarur shartlaridir. Lekin orzu ba'zan maqsadlardan chetlanishga sabab bo'lib, real hayotdan uzoqlashtiradi. Bolalarning ruhiy hayotida orzu o'yinlarining juda muhim o'rin tutishni anglagan holda. O'qituvchi ulardan oqilona foydalana bilish kerak. Chunki bolalarning faoliyatining maqsaddari emas, balki eng avvalo ularning tashqi muhitga munosabati shakllanadi. Bu orzu o'yinlaridir hozirgi zamon psixologiyasidir. Bu soxa bo'yicha amalga oshirilayotgan juda ko'p qarama - qarshiotlar ilmiy va texnik ijodiyot jarayonlarida xayolning rolini aniqlashga bag'ishlangan.

TAFAKKUR

Tafakkur atrof muhitdagi voqelikni nutq yordam bilan bilvosita, umumlashgan holda aks etuvchi psixik jarayon, sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy jarayon bo'lib, uni tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli o'ylangan bo'lsa, u so'zlardan, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hajmda yaqqol ifodalangan bo'ladi. Tafakkurning quyidagi mantiqiy shakllar mavjud: tushunchalar, hukmlar va xulosalar. Tushuncha shunday bir fikrki, unda voqelikdagi narsa va hodisalarining umumiy, muhim, farq qiladigan belgilar aks ettiriladi. Hukm voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi yoki ularning xususiyatlari va belgilari o'rtasidagi bog'lanishlarning aks etirilishi demakdir. «Hamma o'quvchilar oliy o'quvgortiga kira olgani yuk». Xulosa chiqarish fikrlar o'rtasidagi shunday bog'lanishki, bunday bog'lanish natijasida bitta yoki bir necha hukmlaridan biz boshqa hukm keltirib chiqarimiz. Boshqa hukmni keltirib chiqadigan asosiy hukmlari xulosa chiqarishning asoslari deb ataladi. Masalan, butun hamma 1-kurs talablari darsga keladi. Shermuhamedova 1-kurs talabasi. «Bunda, bugun, Shermuhammedova ham darsga keladi» degan xulosa chiqarish mumkin. Taffakur operasialari sakkizta. Ular analiz, sintez taqqoslash, astraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikasiya, sistemalashtirish. Sintez shunday bir tafakkur operasiya sidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bulingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtiruvchi butun holiga keltiramiz. Taqqoslash shunday bir tafakkur operasiasidirki, bu operasiya vositasi bilan ob'yektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi. Abstraksiya - bu operasiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlaridan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib olishdir. Umumlashtirish deganda, psixologiyada narsa va hodisalaridagi xossa, belgi xususiyat, alomatlarini topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi. Konkretlashtirish hodisalarini ichki bog'lanishi va munosabatlaridan kat'iy nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operasiasidir. Klassifikasiya bir turkumdagi narsalarning farqqilishiga, narslarni turkumlarga ajratish sistemasidir. Sistemalashtirish operasiasiy yordamida narsa va hodisalar, fikrlar makonidagi, vaqtdagi egallangan o'rniga qarab joylashtiriladi.

Tafakkurning quyidagi turlari mavjud: ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazli va mavhum tafakkur. Bog'chagacha yosh davrida (uch yoshgacha) asosan ko'rgazmali harakat tafakkur bo'ladi qizikuvchan bolalar ko'pincha ichida borligini bilish maqsadida o'z o'yinchoklarini, buzib, sindirib ko'radilar. Ko'rgazmali obrazli tafakkur sodda formada ko'pincha; bog'cha yoshidagi bolalarda paydo bo'ladi (4-7 yoshdagi bolalarda). Bu yoshdagi bolalar bilayotgan ob'yektini analiz va sintez qilish davomida qiziktirayotgan narsalarni qo'llari bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko'rish shart emas. mazkur ob'yektni aniq qilish va yaqqol tasavvur etish shartidir. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar orqali fikr yuritadilar, hali tushunchalarga ega bo'lmaydilar. Bolalar maktab yoshidagi davrlarida sodda shakldagi mavhum tafakkur, ya'ni mavhum tushunchalar shaklidagi tafakkur rivojlanadi. maktab o'quvchilari turli fanlar-matematika, fizika, tarix va boshqa fanlarni o'zlashtirishlari davomida tushunchalarini egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatta egadir. Maktab ta'limining oxiriga kelib, bolalarda ma'lum darajada tushunchalar tarkib topadi. Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqillik, epcchilik, fikrning tezligi kabi boka sifatlariga ham: kiradi. Tafakkurning mustaqilligi dastavval yangi masala, ya'ni muammoni ko'rabilish va kuya bilishda, undan so'ng ularni o'z kuchi bilan yecha bilishda namoyon bo'ladi. Tafakkurning ijodiy karakteri ham mana shunday mustaqillikda yorqin ifodalanadi. Tafakkurning o'zgaruvchanligi shundan iboratki, masalani yechishning boshda belgilangan yo'li asta-sekin yuzaga chiqadigan va avvaldan hisobga olib bo'lmagan muammo shartlarini qanoatlantirmasa, aynan shu yo'lli o'zgartirishdan iborat. Fikrning tezligi xususan shunday hollarda kerak bo'ladiki, ba'zan kishidan biror qarorni juda qisqa muddat. ichida qabul qilish talab qilinadi.

TEMPERAMENT

Ruhiy hayot oqimining o'tib turishi turli odamlarda turlicha bo'ladi. Ba'zan bir odamlar tevarak - atrofimizdagi Hayot faktlari va hodisalarga shoshmasdan qiyinchilik bilan javob beradilar. Ular suyet va befarq bo'ladilar. Yana ba'zi odamlar g'ayratli, keskin bo'ladi. Boshqa birlari esa, bir maromlik va mulohazali bo'ladilar. Temperament inson psixikasining individual xususiyatlaridan bo'lib, inson psixik faoliyatini o'tish ini, ya'ni dinamikasini belgilab beradi. Biroq psixik faoliyat dinamikasi Faqat temperamentga bog'liq emas. psixik faoliyat dinamikasi, shuning bilan birga, motivlariga va psixik holatlarga ham bog'liqdir. Masalan: har qanday odam, uning temperamentidan kat'iy nazar, o'z ishiga qizikadigan bo'lsa, chakkonrok, tezroq ishlaydi. Har qanday odamning yaqin kishilaridan birini ulishi uning ruhiy va jismoniy kuchlarini bo'shashtirib yuboradi. Temperamentga taallukli dinamik xususiyatlari motivlari va psixik holatlarga taalluqli dinamik xususiyatlardan farq qilish uchun qo'shimcha belgilarini bilishi zarur.

Bu qo'shimcha belgilar quyidagilardan iborat:

1. Temperament ayni xil xususiyatlari. Motiv va psixik holatlaridan farqli o'larok, ayni bir odamning o'zida faoliyatni har xil turlarida va har xil maqsaddarda, masalan, mehnat faoliyati sport bilan shug'ullanganda, shuningdek, daryo jarayonlari va shu kabilar namayon bo'ladi.
2. Temperamentning xususiyatlari odam hayoti davomida yoki ma'lum bir qismda barqoror va o'zgarmasdir.
3. Maskur odamdagi temperamentning turli xususiyatlari bir biri bilan tasodifiy birlashgan bulmay, balki bir-biri bilan qonuniy bog'langan bo'lib, bu xususiyatlar temperament tiplari karakterlovchi ma'lum strukturasi hosil qiladi.

Temperamentning xususiyatlari deganda, bir inson psixik faoliyati dinamikasini, belgilovchi psixikaining barqoror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlarida motivlarida va maqsadlarga nisbatan o'zgarmaydi hamda ruhiy faoliyat haqida sistemali ta'limot yaratgan kishi, Arsitotel bo'lgan. Aristotel Platonning shogirdi bo'lib, uning ta'limotiga tanqidiy

yendoshgan. Aristotel o'z falsafiy ta'limotida idealizm bilan materializm o'rtasida ikkilanib kolgan. U maxsus ilmiy predmet sifatida psixologiyaning otasi, bir qancha asarlar traktarlari yezib, ulardan psixologiya masalalari bo'yicha bayon qiladi. Bulardan eng muhimi «Perepsixiyu» ya'ni «Ruh haqida» deb nomlangan edi. Aristotel ruh tana bilan uzviy bog'langan, deb hisoblanadi. U jonning 3 qismi haqida platon ta'limotidan farq qilib, 3 xil jon haqidagi vegetativ, sezuvchi, aqliy ruh turlari haqida ta'limot yaratdi.

ONG HAQIDA TUSHUNCHA

Psixika voqelikning kishi miyasida aksi sifatida har xil darajalari bilan farqlanadi. Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy

darajasi ongni tashkil etadi, Ong psixikaning, uni yaxlit bir holatga keltiruvchi yo'li bo'lib kishining mehnat faoliyatida boshqalar bilan ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. Shu ma'noda ong marksizm klassiklarining ta'kidlashlaricha, maxsul bo'lib anglagan borliqdan buyuk boshqa narsa emasdir. Ongning strukturasi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday? Uning birinchi ta'rifi nomining o'zidayek berilgan bo'lib, ong deganidir. Ongning ikkinchi ta'rifi unda sub'yekt bilan ob'yekt aniq farqlanishning o'z ifodasini topishi, ya'ni odam «Men» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi. Tirik organizmlar dunyosi tarixida birinchi bo'lib, unda ajralib chiqqan va o'zining atrof muhitiga qarama-qarshi bo'lgan inson o'z ongida ushbu qarama-qarshilik tafovutni saqlab kolmokda. Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina o'zini bilishga ya'ni psixik faoliyatini o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodirdir. Odam o'z hatti-harakatlarini va umuman o'zini-o'zi ongli ravishda baxolaydi. «Men» ning «men emas» dan ajratishi har bir kishi bolaligida boshidan kechiradigan uni o'zini-o'zi anglash jarayonida yuz beradi. Ongning uchinchi ta'rifi odamning maqsadini ko'zlovchi faoliyatning ta'minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarning bajarishning qanday borishi hisobga olinadi. Unga tegishli tuzatishlar kiriladi va h.k. Ong tushunchasi psixologiyada psixioteriyada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta'riflariga mos keladigan ma'noda ishlatiladi. Psixikaning kuyi darajasi ongsizlikdan iboratdir. Ongsizlik kishi o'zi tuta olmaydigan qilib quyadigan taassurotlar bilan bog'liq, psixik jarayonlar harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat sifatidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishini shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnin mo'ljal qilish yaxlitligi yo'kotadi, hatti-harakatning nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlik quyidagi psixik hodisalarini kiritish mumkin: Uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish), sezilmaydigan, lekin haqiqatdan ham ta'sir ko'rsatadigan kuzatuvchilar javob reaksiyalari: Oldinlari ong harakat bo'lib lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglamaydigan bo'lib qolgan haraktlar faoliyatiga undovchi ammo maqsad hissida anglamaydigan ayrim moyillar va h.k. Ongsizlik hodisalar bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir potologik hodisalarni ko'ziga yo'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham ko'rish mumkin. Shularga asoslanib ongsizlikni onga qarama-qarshi deb hisoblash. Uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Ongsizlik bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo'lmagan qismlar aksitarzida inson hayotning ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgandir.

RUX HAQIDA TUSHUNCHALAR.

Ijtimoiy hayot extiyojlari qadim zamonlardan buyon kishini tevarak- atrofidagi odamlarining psixik jihatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularning o'z hatti- harakatlarda hisobga olishga majbur etib kelgan. Dastlabki bu xususiyatlarga jonning ta'siri deb izoh berilgan «Jon» tushunchasining paydo bo'lishi ibtidoiy halqlarning animistik qarashlar bilan bog'liqdir. Ibtidoiy odamning tasvvurida rux tanada batamom ajratilmagan bo'ladi. Bunday tasvurlar Hayothodisalari va ongi, shu jumladan ketish va shu kabilarni noilmiy, primitiv materialistik tarzda talqin qilish okibatidatarkib topgpandir. Ibtidoiy odam bu xildagi hodisalarining sabablarini tushuntirib berish vositalariga ega bo'lmasdan, bevosita idrok

qilinadigan yuzadagi narsani haqiqiy mohiyati sifatida qabul qilib kelgan jumladan tush ko'rish uxlayotganda tanani tark etib yer yuzida kezib yuruvchi ruxning tassavurlari deb tassavur qilingan. Ibtidoiy odam ulimni hayotiy jarayoning oxirgi bosqichi deb tushunilmagan. Shu bois ulim uykuning bir turi sifatida idrok etilib bunda rux allaqanday sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi deb izohlangan. Ibtidoiy odam bu hodisalarni taxmina quyidagicha tushungan. Rux kishining aynan o'zi uning extiyojlarni va odatlari, Hayot kechirish shart sharoit lari tirik odamlarnikidekdir. Marxumlarning ruxlari ham guyo odamlarniki kabi mashg'ulotlar va sosial tartib mavjud bo'lgan. Hamjamiyat tashkiletarmish. Tirik odamlar va marxumlarlarning ruxi o'zaro aloqada bo'lib, moddiy va xo'jalikjihatdan bir-biriga bog'liqdir. Yovvoiy odamning tabiat kashisida o'zligi sababli individning ham, jamiyatning ham ruxdan ana shu tarzda tababliligi haqida tasvvurlar natijasida ruxga tabiat ibodat tarzdagi munosabatlar tarkib topdi. Bu esa dinning dastlabki shakli edi. Keyinchalik jamiyatning ham ruxdan ana shu tarzda keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari planlashtirish va ijroning jismoniy mehnat va ishlab chiqarishning ma'naviy kuchlarining tabaqalashuvi sinfiy jamiyat paydo bo'lishi va kishining mavhumlashtirilishi qobiliyati rivojlana borishi munosabati jonning moddiylikdan ham tabiati haqidagi g'oyalari paydo buldi. Shu bilan birga oldingi antimistik afsonaviy tasvvurlar o'z ruxni borliqning naturafilosoflik manzarasi nutqai-nazardan tushuntirishga urinishlari egalay boshladi.

PSIXOLOGIYA MAKTABLARI

XX-asrning birinchi uch qismi ruxshunoslik bo'yicha katta ilmiy maktablarning paydo bo'lishi bilan ta'kidlanadi. Ilmiy maktab deganda fanda ikki ajralmas faoliyat tushuniladi:

1. Ilmiy maktab - bu doim jamoa faoliyati deb tushgunilgan. Bu maktablarining yuzaga kelishi sabablari nimadan iborat. Ruxshunoslik metodlari va predmeti haqidagi tushuncha bu bi-biridan keskin farq qiladi. 20-30 yillarida ruxshunoslik fani haqida gapirish juda qiyin. Morchloining «Psixologiya-1925y » nomli tuplami chop etiddi. Bir necha yildan keyin Etpoxoydbredr «sen psixologiya» nomli kitobini nashr etdi. Bu kitobda ruxshunoslikning asosiy yo'nalishlarga tavsif berilgan. Ammo o'sha davrdayoq bu yo'nalishlarda kichik maktablar bunyod bo'la boshladi va uning soni tabora ortib bordi.
2. Ana shu yo'nalishlar vorisi bo'lgan struktura maktabi haqida so'z yuritimiz, bu maktabning yo'l boshchisi Vuntidir, Bu maktab namayondalar o'zlarining «strkturalistlar» deb atashgan. Ular o'zlarining asosiy vazifalari deb ongning eksperimental tizimini tadbik qilishdeya bilgandir. Struktura tushunchasi elementlar va ularning aloqadorligini, tadbik etadi, chunki bu yo'nalish ongning indroganlarining kelib chiqish va ularning strkturaviy tizimi usullarini topishga qaratilgan.
3. Bixeviorizm maktabi asrning Amerika psixologiyasining ko'rinishini ochib berdi. Shu bilan birga psixika haqidagi sistemani ishlab chiqadi. Ularni ongni emas balki hulq atvorni o'rganar edilar. Bu maktab namoyondalari Utson Disen va Eduard Torundayk bo'lib, u o'zi haqida shunday deydi; «Men Bixebiorist, emasman, men konneksionistman». Konneksiya inglizcha so'z bo'lib aloqa ma'nosini bildiradi.

HULQ ATVOR HAQIDAGI TA'LIMOTLAR

XIX - asrning oxirida bir qancha Amerikalik psixologlar jumladan, Toridayk va Uotsonlar emperik psixologiyani tanqid qilib iqdilar, Ular psixologiyadagi ko'zatish metodini olib tashlashni taklklf ildilar. Ular insondagi bo'layotgan o'zgarishlarni hammasi ong orqali emas balki tashqi muhit ta'sirida vjudga keladi deb ushuntiriladi. Ular umuman ongni psixologiyadan olib tashlashni taklif kildilar, psixologiya xuddi mana shu davrga kelib ikki tarmokka bo'linadi.

1. Ob'yektiv psixologiya.
2. Sub'yektiv psixologiya.

Psixologiya ruxni o'zini o'rganishda kechganligi uchun uni ruxsiz psixologiya deb atagan bo'lsalar, ob'yektiv psixologiyani esa psixikasi psixologiya deb atadilar. Shuning uchun ham Utson o'zining psixologiya haqidagi maxsus asarini psixologiya hulq haqidagi fanlar deb atadi. Bexibiorizm inglizcha bexivior-degan so'zdan olingan bo'lib o'zbekchaga tarjima qilganimizda hulq atvor deganidir. Amerika psixologiyasidagi bu yo'nalish, shuning uchun ham bexibiorizm deb atalgan. Biz odatda organizmni harakatlari, memika, imo-ishora, nutq, ichki kechimalarni faqatgina tashqi zaxira deb bilamiz. Tradisionalistik va imperik psixologiya ham bizni karakterlarimizni ko'pchiligi ichki psixik kechinmalarini faqatgina tashqi ifodasi deb hisoblaydi. Bixeviorizm asoschisi. Inson hulq reaksiyalar yig'indisi sifatida bitta emas balki butun bir qo'zg'aluvchilari sistemasi bilan tashqi ta'sirida vjudga keltiradi. Organizmni javob harakatlari yig'indisini ro'yobga chiqarish barcha qo'zg'aluvchilarni murakkab yig'indisini Bixevioristlar situatsiya tashqi sharoit deb ataydilar. Bixevioristlar fikricha insondagi ushbu harakatlar reaksiyalar ong bilan emas. balki hulq atvor bilan boshqariladi. Bunda sezgi, idrok, iroda, hayol tafakkur kabi bilish jarayonlari tushunchalari o'rniga har xil nom olgan reaksiyalar ishlatiladi- Bixevioristlar fikricha tashqi qo'zgovchi bilan inson hulqi o'rtasida qonuniy kuchli bog'lanish (karalyasiya) mavjuddir. Bixevioristlar fikricha psixologiya ham tabiiy fanlar singari aniq fanlar sistemasiga aylantirilishi kerak. Psixologiya endi falsafaga emas balki ximiya, fizika, madaniyatshunoslik, biologiya, sosiologiya fanlari bilan alohida bo'lishi kerak, Bixeviorizm fikricha psixologiyaning oxirgi vazifasi insonning butun bir jamiyatni hulq atvorini o'rganish da va tashkilqilishdan iboratdir Psixologiya har bir odamni hatti-harakatini oldindan ilmiy asosda aytib berish kerak. Bixeviorizm nuqtai-nazaridan va tarbiya jarayonidan tarbiyasi va tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir qilishdan emas balki ta'sirga sharoit yaratib berishdan iboratdir.

YOSH PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING PREDMETI VA METODLARI

Pedagogik psixologiya o'qitish va tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi fandir. Buning ma'nosi shuki, pedagogik psixologiya o'quvchilar tomonidan bilim, iktidor va malakalarni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini va shuningdek o'quv-tarbiya prosessida o'quvchilar shaxsining tarkib topishini o'rganadigan fandir. Pedagogik psixologiya fani o'quvchilar shaxsining tarkib topishini va ularni o'qitish masalalarini o'rganar ekan, birinchi navbatda bolalar psixologiyasi bilan mahkam bog'liqdir, chunki bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olmay turib, o'quvchilar shaxsining tarkib topishini, ularni o'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini aniqlab bo'lmaydi. Pedagogik psixologiya o'qitish va tarbiyaning asosini urganib va ishlab chiqib, o'qitishning va tarbiyaning mazmunini tashkil qiladigan darslarga va turli o'quv qurollariga bo'lgan talabni aniqlash, o'qitish va tarbiyaning rasional va samarali metodlarini topish, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchilarning bilimlarga etiqod qilishga erishish qonuniyatlarini ochish: o'quvchilarni mehnat va ijtimoiy faoliyatiga tayyorlashning asoslarini ishlab chiqish imkoniyatiga egadir. Pedagogik psixologiyannng vazifasiga, shuningdek, o'quvchidar va o'qituvchilar, tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabati, o'qituvchi shaxsiga nisbatan kuyiladigan talablarni o'rganish, o'qituvchilik qobiliyatining mazmunini va uning tarkib topishini ochib berish va boshqa masalalarni ham o'rganishkiradi. Pedagogik-psixologiya - ta'lim muassasalarida o'qitish roessida o'quvchilar tomonidan bilim va malakalarni egallashning qonuniyatlarini va tarbiya prosessida bola shaxsining tarkib topishini o'rganadi. O'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini o'rganish pedagogik psixologiyaning predmetini tashkil qiladi. Bu fan o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar tafakko'rining shakllanishini tekshiradi; o'zlashtirish prosessining idora qilish, aqliy faoliyat usullari va malakalarining tarkib topishi problemalarini o'rganadi. O'qitish prosesining, o'quvchi va o'qituvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning, ta'lim oluvchilar " jamoasidagi o'zaro munosabatlarning muvaffakiyatli bo'lishiga tsir qiladigan psixologik faktorlarni aniqlaydi; o'quvchilar

individual psixologik tafovutini, bolalar bilan olib boriladigan o'quv- tarbiya ishlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi. Yosh psixologiyaning predmeti rivojlanayotgan inson shaxsining psixologik xususiyatlari va psixik jarayonlari ontogenezini va inson psixikasining har bir yosh davridagi o'zgarishini o'rganadi. Yosh psixologiyasining bo'limlariga quyidagilar kiradi: Bolalar psixologiyasi, kichik maktab o'quvchilary psixologiyasi, o'smirlar, o'spirinlar, kattalar psixologiyasi, geronoto psixologiyasi, ya'ni qariyalar psixologiyasi. Pedagogik psixologiyaning predmeti ta'lim tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik masalalarini o'rganadi. Bilish jarayonlarining rivojlanishini tekshiradi. Aqliy taraqqiyotning ishonchli mezonlarini izlaydi. Tabiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro masalalarni o'rganadi. Bundan tashqari pedagogik-psixologiya bolalarga individual yondashuv masalalarini ham o'rganadi. Yosh pedagogik-psixologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Pedagogik-psixologiya XIX-asrning 2-yarmiga kelib vujudga keladi va psixologiya faniga genetik goyalarning kirishi bilan yanada rivojlanadi. Rus pedagogi K.D.Ushinskiyning asarlari pedagogik, psixologik. goyalarning rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Jumladan u "Inson tarbyaya predmeti sifatida" nomli asarlar shunday deb yozadi. Insonni har tomonlama tarbiyalaydigan pedagog uni har tomonlama bilishi kerak. XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida pedogikada pedagogik eksperimentni qo'llashning maxsus yo'llari topiladi. Umumiy psixologiyadagi eksperimentning sezilarli yutuqlari (Veber va Fexner tomonidan psixofizik qonunlarning ochilishi, Lebengaus tomonidan xotiraning o'rganilishi) uni yosh va pedagogik-psixologiyada ham qo'llash imkonini beradi. Pedagogikaning rivojlanishidagi dastlabki tajribalar natijasida quyidagi xulosalar chiqadi. "Psixologiyaning pedagogik amaliyot bilan yaqinlashishi, ta'lim va tarbiya jarayonining eksperimental tadqiq qilishi yo'lidagina mumkindir.

XX-asr boshlarida bolalar psixik taraqqiyoti manbalarini har tomonlama talqin etuvchi 2 ta oqim paydo bo'ladi. Bular oqimlar bir-biridan, bola taraqqiyoti asosida qanday omilni olishga qarab farqlaydilar:

1. Biogenetik oqim.

2. Sosiogenetik oqim.

1-oqim tarafdorlarining fikricha, biologik omillar:

irsiyat bola hayotini hal qiluvchi rol uynaydi.

2-oqim tarafdorlarining fikricha, bola taraqqiyotinyng -birdan-bir omili bu muhitdir. Insonni o'rganishuchun u usgan muhitni taxlil qilishning o'zi kifoya. Pedagogikaning mazmuni bola taraqqiyotiing psixologik-fizologik, biologik nuqtai- nazarlarning mexaniq majmuidan iborat. Pedagogiya XIX-asr oxiri, XX- asr boshlarida vujudga kelgadi. Asoschilardan: G'arbda S.Xoll, E.Meymaya, Preyer, Rossiyada Bexterev, Nachayev, Rossolimov va boshqalar, bola fizologiyasi va pedagogikasini siqib chiqarib bolani o'rganish da yakka hukumronlikka. da'vo qiladi. Psixologiya "rivojlanayotgan insonni urganuvchi alohida ilmiy fanlardagi tadqiqot natijalarini kamrab oluvchi kompleks fan sifatida vujudga keladi.

30 - yillarning boshida pedalogiyaning ko'p koidalari tanqid ostiga olindi. Bu 1936 yil 4 iyul sobyk Partiya MK ning halq ta'lim sistemasidagi pedalogik buzilishlar haqida qarori bilan tugatiladi. Mashhur rus psixologi Vugotskiy 20-30 yillarda o'zining oliy stixi funksiyalarining rivojlanishi nazariyasini e'lon kildi. Vo'gotskiy nazariy taraqqiyotining umumiy genetik qonuni kuyidagicha aniqlaydi: "Bola madaniy rivojlanishda har bir funksiya 2 marta ko'rinadi: Dastlab ijtimoiy, so'ng psixologik; dastlab interpsixik kategoriya sifatida bola ichida ko'rinadi. Har bir oliy psixik funksiya o'z taraqqiyotida. tashqi bosqich orqali o'tishi kerak.

Pedagogik-psixologiyada bir necha metodlar mavjud:

1. Kuzatish tashqi, tashqi, ichki, ona kundaligi.
2. Eksperiment tabiiy, laboratoriya.
3. Egizaklar metodi. Uning mazmuni 1 tuxumli egizaklarda psixik taraqqiyotni ko'zlatish va eksperiment sharoitida taqqoslashdan iborat. Bu esa ular irsiyatining bir xilligini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sirining va muhitining ta'sirini o'rganish imkonini beradi.
4. Bola psixikasi taraqqiyotini o'rganishda ko'ndalang-kesim metodi ham qo'llaniladi. Bunda tadqiqotchi psixik rivojining hozirgi paytdagi psixologik xususiyatlarini bilishga intiladi. Tez-tez takrorlanib turgan bundan kesimlar tekshiruvchilar ' haqida ma'lumot olishga imkon beradi.
5. Longityud metodi yoki o'zunasiga kesim metodi. Biror bola uzoq vaqt, yillar mobaynida o'rganiladi
6. Suhbat.
7. Faoliyat maxsulotlarini o'rganish .
8. Anketa.
9. Test.
10. Sosiometrik, Psixik taraqqiyotva ta'lim

Odam va hayvon psixikasi doimo rivojlanib boradi. Lekin hayvonlar dunyosining va odamning rivojlanishi tubdan farq qiladi. Hayvonlar psixikasi taraqqiyotining bosh mexanizmi irsiy-biologik tajribani o'zlatishdir. Uning asosida hayvoning tashqi muhitga moslashuvi yotadi. Inson psixik funksiyalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bolalarning ijtimoiy-tarixiy tajribani egallash jarayonida rivojlanadi. Bola insoniyat dunyosida tug'ildi. Insonlar bilan munosabatda bo'ladi. Ularda ijtimoiy amaliyot tajribasi aks etadi. Bolaning taraqqiyoti bu tajriba jarayonini egallashdir. Bu jarayon kattalar tomonidan doimo xabarlik jarayonida ya'ni ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Inson psixik faoliyatining oliy shakllari bevositalik harakteriga ega. qadimdayok odamlar ta'limda, mehnat faoliyati jarayonida va bolalarda ma'lumotlar berish uchun ularni aks ettirish vositasi sifatida belgilardan, shartli tasvirlardan foydalanganlar. Belgilar va nutq odamning ta'lim jarayoni vositasidir. Bu vositalarning vujudga kelishi va rivojlanishi shuningdek, madaniyatning rivojlanishi psixika tarixiy taraqqiyoti jarayonini harakterlaydi. Bu, vositalarni egallash bilan individual taraqqiyot aniqlanadi. Bola insoniyat tarixida ishlab chiqarilgan tajribani egallaydi. Insoniyat tarixida faoliyatni amalga oshirish vositasigina rivojlanib kolmasdan, ijtimoiy tajribani keyingi avlodlarga uzatish, bu vositalarni uzatishning maxsus yo'li rivojlanadi. Bu maxsus yo'l ta'limdir. Ijtimoiy tajribaning o'zlatishning tashqiliy-usulidir. Shunday qilib, ta'lim bola psixik taraqqiyoti jarayonida muhim rol uynaydi. Psixika taraqqiyotining biologik sharoitlari. Inson psixikasi taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini biologik qonunlar - irsiyat bilan tushuntirish nazariy jihatdan xatodir. Bu amalda katta qiyinchiliklarga olib keladi. Chunki bu yerda tarbiyachining roli pasaytirilvdi. Yosh va pedagogik-psixologiya inson psixik taraqqiyoti qonunlari ijtimoiy bog'langan taraqqiyotjarayoni bola tarbiyasi va Hayotsharoitlarining murakkab majmui bilan belgilanadi, degan fikrlarga tayanadi. Bunda taraqqiyotning biologik sharoitlarining rivojlanishida neyrofiziologik xususiyatlarining psixika taraqqiyotida roli qanday degan tug'iladi. Inson psixik faoliyati juda murakkabdir. Uning xususiyatlari bola tarbiyasi va hayotiga bog'liqdir. So'z mantiqiy xotira, mavhum tafakkur, predmetlarini idrok qilish va boshqalar oliy psixik funksiyalar irsiy biologik yo'l bilan uzatilmaydi, mustahkamlanmaydi. Bu tarixiy taraqqiyotjarayonida ularni qaytako'rishtakomillashtirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida bola psixik taraqqiyotining asosiy tomonini faoliyat usullari va bilimlarini murakkablashtirish tashkiletadi. Hozirgi vaqtda ko'p tadqiqotchilar ta'lim mazmunini o'zgartirib, ya'ni bolaga beriladigan bilimlarni va faoliyat usullarini o'zgartirib, bola taraqqiyotini tubdan o'zgartirish mumkinligini isbotlaydilar. Ko'p qarama-qarshi otlarda (Venge, Gauperin, Elkonin, Davidov) ta'lim mazmuniga maxus vositalarining kiritilishi,aqliy taraqqiyotning absalyut va o'zgarimas deb hisoblangan bosqichlarining o'zgarishiga olib keldi. Masalan: Shvesariyaning psixologi Jan Piaje utkazgan qarama-qarshi otlarda 7-8 yoshdan kichiq bolalar sonlar bilan hamma amallarni bajara olmaydilar, degan xulosaga keladi. Piaje tomonidan tavsiflangan "Mikdorning saklanmasligi" fenomenini hammaga ma'lum. Uni quyidagi eksprementda kuzatish mumkin. 2 idish 1 mikdorda suv solinadi. O'zun ingichka idishdagi suvni bola ko'p deb hisoblaydi. Shunday qilibbola

ta'limda ma'lum masalalarni va ularni yechish usullarini o'zlashtiradilar. Ko'p masalalarni yechish imkoniyati usulning umumlashganligiga bog'liq bo'ladi. Har xil darajada umumlashgan usullar o'z tuzilishiga ko'ra farq qiladilar. Masalan, ko'pchilik bola 1-sinfda arifmetik masalalarni yechishdakonkret harakatlardan bevosita harakatga (arifmetik) o'tadilar. Shuning uchun bolalar teskari masalalarni yechishda qiynaladilar. Shunday qilibta'lim mazmuni bilim va faoliyat usullarining xususiyatlari ta'limda, ma'lum ketma-ketlik ularning bola taraqqiyotining asosiy tomonlarini harakterlaydi. Bilim va usullarni egallashning psixologik mexanizmlarning rivoji faoliyatning umumiy tipini belgilaydigan 1 xil usullar bola tomonidan har xil darajada qo'llaniladi. Bu aniq faoliyat amalga oshirish asosida yotuvchi psixologik mexanizmlar xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bilim va umullarni qo'llash asosida yotuvchi umumlashgan psixologik mexanizmlarning vujudga kelishi bolalar taraqqiyoti jarayonining muhim tomonlarini tashkil etadi.

Muhim umumiy o'zgarishlar 3 asosiy yo'nalishda sodir bo'ladi;

1. Bola shaxsi yo'nalganligining umumiy xususiyatlari.
2. Faoliyat psixologik strukturasi xususiyatlari.
3. Ong mexanizmlarining taraqqiyoti darajasi.

Uchta yetakchi yo'nalish mavjud. Ayrim bolalarda o'quv-yetakchi yo'nalish hisoblanadi Ular yaxshi o'qish, O'qituvchining talabalar bajarish, yaxshi baxoga intilish xosdir. Ba'zi bolalar bilimga intilish yo'nalishi xosdir. Ular masalalar yechishni yangi topshiriklar olishni yoki tashiradi. Ularni baho qiziqirmaydi. Ko'p bolalar uchun atrofdegilar bilan o'zaro munosabat muhimdir. Bu bolalarning hulq atvori jamoada, kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda ma'lum mavqega erishish bilan belgilanadi.

O'quvchi shaxsning yo'nalganligi doimo o'zgarib turadi. Masalan, kichiq maktab yoshida o'qishetakchi yo'nalish bo'lsa, 4-sinf dan boshlab, atrof dagi munosabat muhim bo'la boshlaydi. Har bir faoliyat o'z ichiga quyidagielementlarni oladi: Motiv maqsad, harakat, usul va ob'yektlardan iborat. Ong taraqqiyoti jarayonida bolalarning aks ettirishining mexanizmlari tuzilishi, mazmuni o'zgaradi. Bu fikrlash, xususiyatlarining o'zgarishida ham ko'zga tashlanadi. Misol sifatida bog'cha bolalari uchun predmetlarning tashqi xususiyatlarini va vaziyatlarini aks ettirish, keyinchalik esa predmetlarning funksiyalarini ajratishini so'ngra ularning tuzilishini ajratishlarini keltirish mumkin. Yuqorida kayd etilgan 3 yo'nalish o'zaro bog'langan va ular birgalikda shaxsiy psixik taraqqiyoti o'zgarishlari jarayonini tashkiletadi. Ong taraqqiyotining muhim mezoni o'z ruhiy holatida uylash, o'zining "men"ini anglash hisoblanadi. O'z "men"ini anglash bola shaxsining har xil tomonlarini taraqqiyotini amalga oshirashdagan asosiy mexanizm bo'lib qoladi. Bola shaxsi faolliqi psixik taraqqiyot sharoiti sifatida. Shunday umumiy qonuniyatlardan biri bolaning faolliqi bilan bog'liq yangi psixik tuzilmalarning paydo bo'lishidir. Ta'limda yangilik tashkaridan berilsada, faoliyat tarkibiga kiritilishi faoliyatni qayta" ko'rish bilan bog'lanishi kerak. Bir xil materialni o'zlashtirish har xil 50 bolalarda turlicha ro'y beradi. Shuning uchun bola rivojlanish darjasiga bog'liq ravishda har xil pedagogik sharoitlarni talab qiladi. Bola o'zlashtirish jarayonida o'zining shaxs sifatidagi xususiyatlarini namoyon qiladi. Bola shaxsiy tomonlarining taraqqiyoti ta'lim metodlarida aks etadigan o'zlashtirish mexanizmlarini amalga oshiradi. Maslan ma'lum yosh davri bolalari uchun harakterli bo'lgan yetakchi yo'nalish xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'lumki bog'cha davrida ko'pchilik " yangi narsalar o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi, Shuning uchun ham bu davrda mashgulotlar didaktik o'yinlar shaklida utkaziladi. Bu o'yinlarda bola yangi bilim va usullarni egallashida bolaning faolliqi eng ko'p darajada namoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshida yangilikni o'zlashtirish o'quv faoliyatining ahamiyati bilishga qiziqishning o'sishi bilan bog'liq. Bolaning o'quv faoliyatini shunday shakillantirish kerakki, u o'qishga yo'nalishi o'zini nazorat qilishmalakasini, shaxsiy yutuqlarini baxolay olish malakalarini o'z ichiga oladi. O'quv jarayonida bola uchun yangi narsani bilish qizik va muhim bo'lishi kerak keyinchalik o'quv faoliyatining o'zi ko'proq motivlar bilan uyg'ona boshlaydi. Ilg'or pedagogiklarning tajribasi bolalarga xos bo'lgan yo'nalganlik va motivasiya tipi hisobga olinsa ta'lim muvaffakiyatli bo'lishi isbotlanadi. Shunday qilib motivasion soxasining mohiyati ong tafakkur va faoliyat taraqqiyoti yangi psixologik to'zilmalarning vujudga kelishi va rivojlanishani amalga oshiradigan asosiy ichki sharoitini tashkil qiladi. Shaxs umumiy

xususiyatlari taraqqiyoti va bidim taraqqiyotining pedagogik sharoitlari. Ta'lim jarayonida bola taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan tashqari bolaning psixik taraqqiyotining har xil tomonlari uchun harakterli bo'lgan aniq pedagogik sharoitlarni ham hisobga olishi zarur, o'quvchilarining ta'lim jarayonida har xil o'quv predmetlarida bilimlar va usullarini egallaydilar. Ta'lim olinayotganda bolalar insoniyat bosib o'tgan yo'lini takrorlamaydi. Harakat usullari va bilimlar bolalarga tashkaridan beriladi va o'zlashtiriladi. Vazifaning xususiyatlariga bog'liq ravishda ta'limga yangi harakatlar, yangi usullar kiritiladi va ular bu masalalarni yechishning vositasi hisoblanadi. Bola ilgari bajargan vazifaga taqqoslab yangi vazifaning xususiyati va vazifani yechishning vositasi sifatida yangi harakatlarning xususiyatlarini tushunishlari kerak. Faqat shu holdagina yangi harakatlarni o'zlashtirish, ayniqsa, belgili, operapiyali amallarni o'zlashtirish anglangan bo'ladi. Bolalar o'z faoliyatlarini tashkil etish vositalarini egalashlari mumkin. Bolalar faoliyatini tashkil etishning ma'lum bosqichlarini ajratishga urgatiladi: Ularni rejalashtirish, tayyorlanish amalga oshirish nazorat qilish va baxolashdir. Shunday qilib bola tarakiyoti jarayoni qandaydir bir tomonning o'zgarishi bilan harakterlanmaydi, balki u murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Psixologik taraqqiyotning har xil tomonlarini amalga oshiradigan pedagogik sharoitlar har xildir. Taraqqiyotning yoh bosqichi yoki yoshining o'zi nima? Bu savolga javob topish inson psixik taraqqiyoti tabiatini tushunishga bog'liq. Bundan nuqtai nazarlardan birida yosh davrining o'zgarishligi qayd etiladi. Yosh haqidagi bunday tasavvur psixik taraqqiyotini tabiiy biologik jarayon sifatida tushunish bilan bog'liq, qarama-qarshi nuqtai-nazarlardan yosh tushunchasi umuman rad etiladi. Bunday hollarda taraqqiyot bilish va ko'nikmalarni to'plashdagina iborat deb qaraladi. Har bir yosh davri psixik taraqqiyotining maxsus bosqichidir va bola taraqqiyotining ma'lum bosqichida shaxs strukturadagi o'ziga xosliklar majmuini tashkiletadigan o'zgarishlar tuplami bilan harakterlanadi. AS.Vugotskiy yoshini taraqqiyotning ma'lum davri deb karagan 1 yosh davrdan boshqasiga o'taganda ilgari yosh davrida vujud bo'lmagan yangi narsa paydo bo'ladi, taraqqiyotning borishi o'zgaradi va qayta ko'riladi. Yosh xususiyatlari ko'p sharoitlar majmui bilan belgilanadi. Ularga xayotning ma'lum bosqichida bolaga kuyiladigan talablar sistemasi ham munosabatlar ham, u egallaydigan faoliyat va bilimlar tipi ham bu bilimlarni o'zlashtirish usullari ham kiradi. Yoshning xususiyatini belgilaydigan sharoitlar mazmuniga bola jismoniy taraqqiyotning har xil tomonlar xususiyatlari ham kiradi. Shunday qilib yosh davri Hayot taraqqiyotining ma'lum davrida bolaga quyiladigan talablar xususiyatlari bilan uning atrofdagilar bilan munosabatlari bola shaxsi psixologik taraqqiyot darajasi bilan uning tafakkuri va bilimlari taraqqiyoti darajasi bilan ma'lum fiziologik xususiyatlar majmui bilan harakterlanadi. Yosh taraqqiyotni davrlarga bo'lish. So'nggi vaqtlarda pedagogik - psixologiyada pedagogik mezonlarga asoslangan yoshni davrlarga bo'lishda foidalaniadi: Bog'cha yoshi davrlari (yasli, knchiq, o'rta katta va maktabga tayyorlov)

Yasli yoshi - 3 yoshgacha

Kichik guruh - 4 yosh

O'rta guruh - 5 yosh

Katga guruh - 6 yosh

Tayyorlov guruh - 7 yosh

O'quvchilar taraqqiyotining xususiyatlariga bog'liq ravishda va ta'lim tarbiyaning asosiy bosqichlariga moye ravishda maktab davri uch bosqichga bo'linadi. Boshlangich sinf 1-3,4 sinflar o'rta 5-9 sinflar. Yuqori 10,11,12 - sinflar. Yosh davrini atrofdagilarga munosabat taraqqiyot darajasi bilan bilimlar, usullar, qobiliyat taraqqiyot darajasi o'rtasidagi aloqa belgilaydi. D.B.Elkonining ta'kidlashicha taraqqiyot jarayonining bu 2 turli tomonlari o'rtasidagi munosabatning o'zgarishi keyingi yosh davrlarda muhim ichki asosni tashkil etadi. Masalan, gudaklik davrida bolaning tashqi muhit bilan aloqasi uning kattalar bilan aloqasi orqali amalga oshiriladi. Bola xuddi shunday munosabatlar sistemasi sifatida ma'lum malakalarni egallaydi. Undan tasavvurlarni sodda bosqichlari shakllanadi. Kattalar bilan muloqot usullari kengayadi, nutqi rivojlanadi va boshqalar. Bo'larning ba'ri bolaning mustaqil harakat qilishimkoniyatlarining kengzyishi uchun asos yaratadi. So'ngra atrofdagilar bilan munosabat usullari ham o'zgaradi. Bu esa psixik

taraqqiyotning keyingi borishi sharoitini o'zgartiradi. Bunday vaziyat usmirlilik davrida ham vujudga keladi. Bunda oldingi taraqqiyot yutuqlari majmui bola hayot sharoitlari o'zgarishi bolaning atrofdagilar bilan munosabat usullarining o'zgarishiga olib keladi.

TA'LIM PSIXOLOGIYASI

O'zlashtirish ta'lim keng ma'noda o'quvchining uyushgan bilish faoliyatidir bu faoliyat idrok, xotira, tafakku, xayol kabi qator bilish proseslarini o'z ichiga oladi. Ijodiy o'zlashtirish sifatida o'qish bilim egallash uch faktorga - nimani o'qitish ga, kim va qanday o'qitishga, kimni o'qitish ga bog'liqdir. Birinchidan, o'qishning harakteri o'zlashtirilayotgan materialga, uning mazmuniga va qanday sistemada yetkazib berilayotganligiga bog'liqdir. Ikkinchidan, o'qituvchining metodik maxoratiga va tajribasiga, uning shaxsiy xususiyatlariga, har bir ayrim holda qo'llaniladigan konkret o'qitish metodikasiga bog'liqdir. Nixoyat, o'qish jarayoni o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlariga ham uning psixik rivojlanishining (aqliy, emosional irodaviy jihatdan) individual harakteristikasiga, unda o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlarga uning qiziqish-havaslariga bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim prosessi o'quvchiga nimani va qanday qilib o'rgatishning oddiy va bir xil natijasi emas, ya'ni sirdan ta'sir qildiriladigan shart-sharoitlarning oqibati emas balki o'quvchining individual psixologik xususiyatlariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. N.D.Devitov o'zlashtirishning psixologik komponentlari degan tushunchani kiritadi, deganda o'quvchi psixikasining bir-biri bilan o'zaro bog'langan ko'p qirrali tomonlarini tushunadi. Uning fikricha, ama shu komponentlarni aktivlashtirmasdan va tegishli tarzda yo'naltirmasdan turib ta'limda maqsadga erishib bo'lmaydi. Bunday komponentlarga quyidagilar kiradi. 1. O'quvchilarining o'qishga ijobiy munosabatda bo'lishi o'qishga ijobiy munosabatda bo'lish o'quv materialini to'la-to'kis o'zlashtirishning mutlaqo zarur shartidir. Material bilan bevosita xyssiy tanishish jarayonlari. O'quv materialini o'zlashtirishda his etiladigan, ko'rgazmali materialning, «jonli mushoxada» ning roli katgadir. Psixologik nuqtai –nazardan predmetli, tasviriy va so'z ko'rgazmaliliklari farq qilinadi. Olingan materialni aktiv ravishda qaytaishlash jarayoni bo'lgan fikirlash jarayoni. O'quv materialni anglash, tushunish, uni muayyan sistemaga kiritish, muayyan sohalarga oid aloqalarni, fanlar ichidagi va fanlararo aloqalarini topa olish va ularni o'zaroboglay olish (YU.A.Samarin fikri bo'yicha) o'zlashtirishning navbatdagi eng muhim komponentidir. Tushunish hamisha yangi materialni tarkib topib bo'lgan assosiasiyalar sistemasiga kiritishni, notanish materialni tanish material bilan boglashni anglatadi. Sabab oqibat bog'lanishlari munosabatlarini o'rganish o'quvchilar uchun birmuncha qiyinchilik tug'diradi, bunga sabab, bir tomondan shuki, hatto bir xildagi oddiy munosabatlar ham ko'pincha bir tomonlama emas (birdan-bir sabab bitta okibat), balki ko'p tomonlama bo'ladi (bitta sabab ko'p okibatlarga ega bo'ladi yoki bitta oqibatni ko'pgina sabablar vujudga keltirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bu qiyinchiliklar shu narsa bilan bog'liqki, sabab-oqibat bog'lanishlari ko'pincha oddiy kuzatish yo'li bilan idrok qilinmaydi, balki tafakkur yordamida aniqlanadi. Qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotni esda olib qolish va esda saqlash prosessi. O'quvchining tafakkuri bilan qabul qilingan va qaytaishlangan axborot xotirada saklanishi lozim. Bu esa istalgan bir paytda xotiradagi zapaslardan zarur ma'lumotlar olish va ularni qo'llash imkoniyatini beradi. Ko'pgina psixologlar ta'lim prosesini taxlil qilar ekanlar, uni yetarli darajada boshqarib bo'lmaydigan proses deb ta'kidlaydilar. Lekin uni butunlay boshqarib bo'lmaydigan ravishda tarkib topadigan proses deb atash noto'g'ri, bu hol aniq maqsadni ko'zlab ta'lim berish goyasini zid bo'lar edi. Ta'lim jarayonini boshqarishning boshqa imkoniyatlarini qidirish programmalashtirilgan ta'limning psixologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'langan (L-N.Landa va boshqalar) Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, programmalashtirilgan ta'lim nima va u odatdagi ta'limdan nima farq qiladi? Buni tushunish uchun o'quv jarayonini uning qatnashchilari: ta'lim beradigan, bilimlarni yetkazadigan o'qituvchi va ukutiladigan, axborotni o'zlashtiradigan o'quvchi tomonidan stixiyali tarzda tasavvur qilib ko'rmoq kerak. O'qituvchi bilan o'quvchi, ma'lumki, o'quv jarayonining ikki zvenosidir (zveno-ta'limning sub'yekti va zveno-ta'limning ob'yekti). Mana shu zvenolarning o'zi o'quv jarayonidagi boshqarish sistemasining zvenolaridir. Ular orasida, kibernetika tili bilan aytganda to'g'ri va kaytarma aloqalarining kanallari harakat kilvdiki, bu kanallar orqali ukiguvchi bilan o'quvchi axborot ayra boshlaydilar. O'qituvchi

tushuntiradi, isbotlaydi, dalil keltiradi, chizadi, rasim, soladi, tajryba qilibko'rsatadi o'quvchi ko'radi, tinglaydi, tushunishga, o'zlashtirishga, esda olib qolishga harakat qiladi, fikr yuritadi, umumlashtiradi. Buning ma'posm huki, "to'g'ri aloqa kanali" orqali axborat sub'yektidan ob'yektga, O'qituvchidan o'quvchiga yetkaziladi. Lekin buning o'zi yetarli emas. Ta'lim tula - tukis bo'lishi uchun "Qaytarma aloqaqani" ham harakat qilishi zarur, o'qituvchi o'quvchining qanday ta'lim olayotgani haqida axborotga ega bulmay turib, ko'r-ko'rona ta'lim bera olmaydi. Shu sababli ta'lim prosessi "Qaytarma aloqa kanali"ning ham ishlanishini nazarda tutadi: o'quvchi darsda olgan bilimidan javob qaytaradi, materialni takror ishlab chiqadi, masalani yechadi, o'quvchi tenglaydi, ko'radi baxo kuyadi. Faqat ana shu "qaytarma axborot" asosidagina O'qituvchi ma'lum o'quvchining ta'lim olishi muvaffaqiyatli borayaptimi-yo'qmi shu haqda xulosa chiqara oladi va shunga qarabta'lim prosessiga to'zatislar kirita oladi, o'quv jarayonining bundan keyingi borishini planlashtira oladi. Aqliy rivolanish tushunchasining o'zi turli tadqiqotchilar tomonidan har xil talkin kilinmokda. S.ARubinshteyn bilan B.Gananyev birinchilar qatori umumiy aqliy rivojlanishni umumiy intellektni tadqiq qilishbilan sgugullanishga da'vat etib maydonga chiqdilar. Masalan, Ananyev bu kategoriyalar odamning shunday murakkab psixik xususiyatlarini o'qishva mehnatdagi muvafakiyat ana shu xususiyatga bog'liqdir, deb gapiradi. Olim bu kategoriyalarni bilishga oid turli vazifalarning quyilishi va hal etilishi bilan bog'langan, ya'ni hodisaga eng umumiy mo'ljallovchi karakteristika bergan bo'lib, bu karakteristika uni hal etishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatib beradi. Keyingi yillarda ana shu ko'rsatib o'tilgan muammoni juda turli yo'nalishlarda entensiv tarzda tadqiq etish boshlab yuborildi. Bu qarama-qarshi otlar orasida N.S.Leytesning tadqiqotini qayt qilib o'tish kerak N.S.Leytes avvalo akl sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar (garchi ular jiddiy ravishda iroda va emosional xususiyatlarga bog'liq bo'lsa ham) odamning nazariy bilish va amaliy faoliyat imkoniyatlarini karakterlab beradi, deb ta'kidlagan. Odami netellekti uchun eng muhim narsa shuki, u atrofini o'rab olgan va olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishna munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkonini beradi. N.S.Leytesning ko'rsatib o'tish ga Karaganda, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida aktivlik va o'z-o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo'lib, bo'lar umumiy aqliy qobiliyatlarni tarkib toptirishping muhim ichki shartlarilap biridir. Ko'pincha fikrlar munosabati bilai aqliy rivojlanishning mazmuniga oid mezonlar (belgilar, ko'rsatkichlar) masalasi vujudga keladi. Bunday eng umumiy mezonlarning ro'yxatini N.D.Levitov keltirib utadi. Uning fikricha, aqliy rivojlanish quyidagi ko'rsatkichlar bilan:

- 1) tafakkurning mustaqilligi bilan
- 2) o'quv materialini o'zlashtirishning tezligi va mustahkamligi bidan,
- 3) standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda aqliy chamadashning (topkirlikning) tezligi bilan,
- 4) o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish (muhim bo'lgan narsani muhim bo'lmagan narsadan ajrata bilish)
- 5) aqlning tanqidiy qarshi, balanparvoz, asossiz muloxazalarga moiylilikning yukligi bilan karakterlanadi. D.B.Elkonin uchun aqliy rivojlanishning asosiy mezoni to'g'ri tashkil etilgan o'quvfaoliyati strukturasining (tarkib topgan o'quv faoliyati) hamda uning komponentlari-masalaning quyilishi vositalarni tanlash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tekshirishning mavjudligi,

shuningdek, o'quvfaoliyatidagi predmet va simvolik planlarning to'g'ri nisbatidir. N.A.Menchinskaya shu munosabat bilan fikrlash faoliyatining shunday xususiyatlarini chunonchi:

- 1) o'zlashtirishning tezligi (yoki sustligi)
- 2) fikrlash prosessining puxtaligi (ya'ni ishni qaytako'rishning topshiriklarning o'zgargan sharoitlariga moslashishning osonligi yoki qiyinligi);
- 3) tafakkurdagi ko'rgazmali va mavhum komponentlarning mahkam bog'lanishi (yoki takrorligi) va

4) analitik-sintetik faoliyatning turli darajasini qarabchiqadi.

Hozirgi zamon pedagogik psixologiyasi ta'limni oqilona intensivlashtirishni ya'ni o'quvchilarining yoshlariga xos intellektual imkoniyatlari haqidagi an'anaviy tasavvurlarni o'zgartirish, ta'lim oluvchilarning aqliy taraqqiyot rezervlarini kidirib topish masalalarini ko'rmoqda. Shuningdek psixologlar ta'lim prsessida o'quvchilarda aktiv mustaqil ijodiy tafakkurni, mustaqil bilish faoliyatiga mustaqil bilim egallashga yoki ba'zi hollarda aytishlaricha, o'z-o'zinicha ta'lim olishga oid qobiliyatni ustirish choralarini ko'rmoqdalar. Shuningdek ta'limni individuallashtirish va defferensiyalashning psixologik negizlari ishlab chiqilmokda. L.V.Zankov ancha mashhur yangi didaktiv ta'lim sistemasining (kichik yoshdagi o'quvchilar bilan) ishlab chiqmokka. Bu sistemaga quyidagi prinsiplar aso qilib olinadi:

1) ta'limni yuqori darajadagi qiyinchiliklar asosida (qiyinchilik mezoniga kat'iy rioya qilganholda) ko'rish. Faqat ana shunday ta'lim, deb ko'rsatadi L.V.Zankov, jiddiy aqliy ish olib borish uchun ozik berishi hamda o'quvchilarning tez va intensiv ravishda

rivojlanishiga kumaklashishi mumkin.

2) Materialni tez sur'at bilan o'tish (yana akilga to'g'ri keladigan chegarada); ta'limning bilishga taallukli tomonining, nazariy, bilimlarining salmogini keskin tarzda oshirish. materialni egallashga olib boriladigan yo'l olingan ma'lumotlarni o'zviy o'zaro bog'liq holda o'quvchining savollariga mustaqil ravishda javob izlash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tekshirish yordamida chuqur anglab olishdir. Ko'rsatib o'tilgan prinsiplarga muvofiq ravishda tashkil tilgan eksperimental ta'lim shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar ancha chuqur va mazmunli bilim olibgina qolmay, balki ularning aqliy aktifligi ortadi, ularning intellektual rivojlanishi ta'minlanadi, o'qishga ijobiy munosabat tarbiyalanadi. O'quvchilarining bilish faoliyatini maksimal darajada aktivlashtirish, ularning aktiv ijodiy tafakko'rini avj oldirish maktab ta'limining muhim vazifasiga aylanib bormoqda.

Ta'limning asosi-O'qituvchinipg o'quvchilarga o'tkazadigan mo'l-ko'l axborotni esda olib qolishemas (garchi bu muhim vazifa bo'lsada), balki bu axborotni olish jarayonida o'quvchilarining o'zlari aktiv ishtirok etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish qobiliyatini, o'z-o'zicha ma'lumotni oshirish qobiliyatini asta-sekin shakllantirib borishdan iborat bulmogi kerak. Ko'pgina psixologlar L.S.Vugotskiy tomonidan aniqlangan qoida, ya'ni ta'lim berish o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini ko'zlamasdan, bir muncha olga ketishi, o'quvchining tafakkuriga unin mavjud imkoniyatlarini bir muncha oshiradigan talablar qilishi, u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitek-sintetik faoliyat darajasini talab qilishkerak degan qoidaga asoslanadilar. L.S.Vugotskiy ta'limning aqliy rivojlanishilagi yetakchi rolini ta'kidlar ekan, ta'lim o'quvchi ni i g rinojlapitilagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayyopmogi lozim, deb hisoblagan edi. Ta'lim rivojlanishining Faqattugallangan darajasi asosida ko'rilmagan, avallo hali unchalik tarkib topmagan (va shunday ta'lim ta'siri ostida tarkib topayotgan) narsalarga tayanmogi lozim. L.S.Vugotskiy boladagi aqliy rivojlanishning ikkinchi darajasi haqidagi koida ni ifodalvb borali. Birinchi daraja, Vugotskiy aytganidek aktula rivojlanish darajasi o'quvchi tayyorgarligining mavjud darajasi bo'lib, u o'quvchiniig anday topshiriklarni to'la mustaqil bajara olishi bilan harakterlanadi. Ancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (uni Vo'gotskiy eng yakin rivojlani! zonasi lob aytgan) balani nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozrok ordam bilan (yo'l - yurik, beruvchi sovollar, aytib berishlar, ishora qilishlar, umumiy ko'rsatmalar berish va xokazo) nimaning uddasidai chiqa olishini ko'rsatadi Vugotskiy, bola bugun kattalar, o'qituvchi yordamida karayotgan

narsani ertaga mustaqil ravishda o'zi bajaradi, eng yaqin rivojlanish zonasiga kirgan narsalar, ta'lim prosessida aktula rivojlanish darajasiga utadi deb ta'kidlagan edi "Aktiv tafakkur", "Mustaqil tafakkur" va "Ijodiy tafakkur" tushunchalari o'rtasidagi munosabatni konsentrik doiralar shaklida belgilash mumkin. Bu tushunchalar tafakko'ning turli darajalari bo'lib, ularning har bir keyingisi o'zidan oldingi boshlangich tafakkurga nisbatan bir ko'rinish hisoblanadi. Ijodiy tafakkur mustaqil va aktiv bo'ladi, lekin har qanday aktiv tafakkur ham mustaqil tafakkur bo'lavermaydi va har qanday mustaqil tafakkur ham ijodiy tafakkur bo'lavermaydi. Buni misol tariqasida tushuntirib beraylik. O'quvchi teoremani isbot qilishni tushuntirib berayotgan o'qituvchining so'zlariga diqqat bilan quloq soladi, materialni tushunib olishga harakat qiladi bu yerda gap aktiv tafakkur haqida borishi mumkin. Agar o'qituvchi tushuntirish o'rniga o'quvchilarga teoremani darslik tyokisti asosidamustaqil taxlil qilish, tegishli bo'limni mustaqil ishlab chiqishni taklif etas, u holda mustaqil (va, albatta, aktiv] tafakkur haqida gapirish mumkin. Isbot qilib berilmagan narsani o'quvchining o'zi kashf etib, o'zi topgan taqdirda ijodiy tafakkur haqida gapirsa bo'ladi. O'quvchilarining biror bir haqiqatni ,mustaqil izlash va kashf etish

bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodi problemali evrestik yoki tadqiqotchilik metodi deb ataladi. qarama - qarshiotlarning ko'rsatishicha bu o'rinda faqat natijani tanilishi haqiqatning sub'yektiv "kashf etilishi" fakti emas uni izlash jarayonining o'zi. ham o'quvchilarni ijodiy fikr "laboratoriyasi" ning o'ziga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Problemali ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega bo'ladi:

- 1) o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, dialektik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi,
- 2) u o'quvmaterialni ancha ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tikodga aylanishga kumaklashadi,
- 3) u odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his –tuyg'ullar, shu jumladan, shodiyona konikish tuygusini, o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonish tuygusini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziktiradi. O'quvchilarda ilmiy bilishga chidami qiziqishni tarkib toptiradi.

4) Haqiqatning, qonuniyatning mustaqil "kashf etilishi" osonlikcha unitilmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilgan bilimlar unitilgan taqdirda ham, ularni tezrok qayta tiklash mumkin.

Ta'limni individuallashtirish har bir ukiuvchi individual (alohida) boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim oladi degan ma'noni bildirmaydi (garchi prinsip jihatdan shunday ta'lim bo'lishi mumkin bo'lsa ham) xususan, programmalashtirilgan ta'lim (epizod sifatida emas, balki ta'lim sistemasi sifatida) o'z tabiatiga ko'ura individuallashtirilgan. Ta'limni individuallashtirish-o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga tayanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda ko'riladi. Ta'limni individuallashtirish prinsipi o'qitish da o'quvchilarining real tiplariga tayanish zarurligiga asoslanadi. Bu prinsipni, biz o'qib o'tganimizdek. Pragrammalashtirilgan ta'lim juda yaxshi amalga oshiradi. Lekin odamdagi ta'li sharoitida ham bu prinsip tadbiiq etilishi mumkin va lozim. O'quvchilariyaing individual-psixologik xususiyatlarai ta'limning ayrim metoldari va usullarini tanlash hamda qo'llash vaqtida, sinf va kontirol ishlarining variantlarini (ularning qiyinchilik darajasiga karab) aniqlashda hisobga olinadi. Ta'limning bilishga oid qiziqishlarni rivojlantirishga qaratilgan modivasion-qizikarli tomonlariga ko'proq etibor berilishi lozim. Ana shu o'quvchilar bilan olib boriladigan ishning karakterli xususiyati ular psixikasining ojiz tomonlariga passiflik bilan moslanish emas, balki bu o'quvchilar maksimal darajada voyaga yetishi uchun ulraning aqli rivojlanishiga aktiv ta'sir ko'rsatish prinsipi bulmogi kerak. Tarbiyachi va o'quvchi ayrim bolalarda o'zining o'rtacha ekanligi, qobilyatsizligi va hatto mukammal emasligi. haqida paydo bo'lgan tasavvurga aktivlik bilan karshilik ko'rsatishlari lozim. Ta'lim bunday o'quvchilarining individual xususiyatlariga muvofiqlashmaydi, balki o'quvchining o'zi tobora tezlashib va murakkablanib borayotgan ta'lim prosessiga ko'proq moslashadi. Pedagog va psixologoklarning asosiy vazifasi-barcha bolalarning kobilyati maksimal darajada va har tomonelama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat.

TARBIYA PSIXOLOGIYASI

Shaxs odam ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar sistemasining ta'siri ostida va unda o'zi bajaradigan faoliyat ta'siri ostida tarkib topadi. Ijtimoiy muhitning, kollektivning shaxsga ta'siri to'g'risida gapirilar ekan, sosial psixologiya ishlab chiqayotgan referent guruh tushunchasiga asoslanish zarur. Gap shundaki, hamma odamlar ham, hatto eng yaqin tevarak- atrofdagi odamlar ham maktab o'quvchisining shaxsiga ta'sir qilavermaidi ko'plarning fikrlariga u befarq qaraydi. Har bir odam uchun bo'lganidek, har bir maktab o'quvchisi uchun ham ayrim guruhlar (ba'zan bunday guruh bir kishidan tarkib topgan bo'lishi mumkin) mavjud bo'ladi, u shaxs sifatida bu guruhlarining fikrlari, o'zi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muloxazalari bilan hisoblashadi. Oila, sinf, sinfdagi ayrim o'quvchilar ba'zi, o'qituvchilar, xovlidagi ulfatlar, yaqin do'st va hokazolar muayyan maktab o'quvchisi uchun ana shunday referent guruhlar bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchisining tez- tez uchrab turadigan tarbiyaviy ta'sirlariga befarqyoki hatto salbiy munosabatda bo'lish hollariga ko'pincha o'quvchining tarbiyachiga ma'lum bo'lmagan referent guruh pozitsiyasida turishi sabab bo'ladi. A.V.Petrovskiyning oqilona fikrga ko'raagar tarbiyachi, maktab o'quvchisi xech narsa va xech kim ta'sir qila olmaydi, deb da'vo qiladigan bo'lsa, bu narsa odatda tarbiyasining maktab o'quvchisining axloqiy pozitsiyasini belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutloko xabarsiz ekanligini bildiradi. Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyasining hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslar berilgan vositalari formalari hamda metodlarining qo'llanilishi bilan tasodafiy va stexiyali ta'sirlardan ajralib turadi. A.S.Makarenko alohida ta'kidlab bunday degan edi, sog'lomtarbiyaviy vaziyatsiz mukammal shaxs vujudga kelgan yoki aksincha, to'g'ri tarbiyaviy ish olib borilgan paytda buzilgan shaxs tarkib topgan birorta holni bilmayman. Maktab o'quvchisining muayyan koidalar va normalarini bilishi ma'naviy hulq atvorining zarur shartidir. Biroq axloq normalarini shu tariqa bilish o'z-o'zidan axloqiy hulq-atvorini tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga, bilimlarni ma'naviy hulq-atvor praktikasiz o'zlashtirib olish ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy hulq-atvori o'rtasidagi ajralishda ifodalanadigan (axloqiy formalizm) deb atalovchi formalizimning yuzaga kelishiga olib boradi.

Shuning uchun maktab muassasasi tarbiyalanuvchisi maktab o'quvchisining hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish ijodiy axloqiy sosial ijtimoiy hulq atvor tajribasi uning shaxsini tarkib toptirishda asosiy narsa bo'lishi kerak. O'quvchida bu narsa tarbiyachi raxbarlygida hosil bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarda oilimlar sistemasini-tabiiy, axloqiy va g'oyaviy-siyosiy bilimlar sistemasini, (bu bilimlar muayyan darajada yetakchi rol o'ynagan paytda tarkib toptirish bilan yuz berish kerak. Psixologlarning bergan ma'lumotlariga ko'rabirgina faoliyatning o'zida (bu faoliyatning bola uchun nima sababdan yuz berishga qarab) shaxsning har - xil (va hatto bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan) sifatlari

tarkib topishi mumkin. Masalan, biz tarbiyalanuvchilarni boshqalarni ochiqdan-ochiq va dadil tanqid qilishga o'rgatamiz. Ana shunday qilish bilan bolada prinsipiiallik, jasurlik sofdillik tanqidiy ko'z bilan karash fazilatlarini tarkib topadi deb hisoblaydilar. Ammo biz aytilganlarni hisobga olmasak, hamisha ham o'zimiz ko'zlagan maqsadga erishavermaymiz. Chunki hulq - atvorning ana shu to'g'ri formasi negizida maktab o'quvchisi amal qiladigan motivlar yotadi.

Bu hulq-atvor shaxsan o'quvchining o'zi uchun qanday ma'noga ega bo'lishiga qarabundan har xil sifatlari tarkib topishi mumkin. Agar o'quvchi o'z o'rtog'ini prinsipiial motivlar asosida tanqid qiladigan bo'lsa bu tanqid uning o'rtog'ida harakterning prinsipiiallik, katiylik, halollik singari sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi: bordi-yu o'z aybini o'rtog'ining bo'yniga kyuish istagi bilan tanqid qiladigan bo'lsa, bu xudbinlik, individualizimning tarkib topishiga yordam beradi, Agar shaxsiy araz bilan tanqid qilinadigan bo'lsa unda shu asosda qasoskorlik, makkorlik, insofsizlik hislatlari tarkib topadi. Agar bunday tanqid qilishga nixoyat o'qituvchidan kurkish va unga e'qit istagi yoki mag'rurlik istagi prinsipiiallik sabab bo'lsa, unda laganbordorlik ikkiyuzlamachilik singari hislatlar tarkib topishi mumkii biibarim to'g'ri hulq-atvor tajribasi bu hattiharakat muayyan motivlar asosida amalga oshirilgan vaqtdagina ko'zlagan maqsadga olib keladi. Maktab o'quvchilarining yo'nalishiiii tadqiq qildi va yo'nalishining uchta asosiy to'rini-

kollektiv, shaxsiy na ishchanlik yo'nalishlarini (ishga, faoliyat qarayoniga bo'lgan yo'nalishni, ijodiy faoliyatga qiziqishni") alohida ajratib ko'rsatdi. Yo'nalishining kollektiv, shaxsiy turlari bir xil, to'g'ri harakteristikasiga ega bulmasligi kerak. Haqiqiy yo'nalishdan tashqari "xudbinlik guruhi" deb atalgan yo'nalish boshqa kollektivlarning qiziqishlarini mutlaqo mensimaganda holda faqat bitga kollektivning, (guruh sinf) qiziqishlarinigina e'tirof etadigan yo'nalish ham bor. Shaxsiy yo'nalish shaxsiy yutuqlarga erishishga qaratilgan yo'nalish sifatida hamma vaqt ham kollektiv yo'nalishiga qarama-qarshi bo'lavermaydi. Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining psixologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning har qanday metodiga abstrak tarzda qarab va uni baholab bo'lmaydi, fikrga asoslanar.

Bu metodlar qo'llanilayotganda, tarbiyalanietgan o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, shu o'quvchi a'zo bo'lgan bolalar kollektivining xususiyatlarini, nixoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan konkret sharoitlarni hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun maktab o'quvchisining barchavaziyat va holatlarida to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi xurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri hulq-atvorli bo'lishi mashq qilishi (bu eng muhim) zarur bilimlar axloqiy tasavvurlar va tushunchalarining muayyan

sistemasini egallamasdan turib haqiqiy e'tikodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z-o'zidan bu bilimlar axloqiy hulq-atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi. Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayon bo'lib, unga maxsus raxbarlik qilishni talab etadi. O'quvchilarining tasodifiy xollar, ko'chadagilaning bema'ni ta'siri kattalarning yaramas hattiharakatlari ta'sirida tarkib topadigan vxlokiy tushunchalari va kollektiv tomonidan to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilinmasa, xato, noto'g'ri, bo'zuk tushunchalarga aylanib qolishi mumkin. Ba'zan o'quvchi turmushdagi biror fakt yoki voqani, adabiy asarlardagi mazmunni, kino kartinalarni o'zi mustaqil tushuna olmay noto'g'ri xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'quvchida xato fikrlargina emas, balki ma'naviy prinsiplar va ustanovkalar ruxiga ko'ra bizga yot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mumkin.

Ko'pchilik noto'g'ri hatt-harakatlarning yuz berishiga ana shular sabab bo'ladi.

Axloqiy ongni tarkib toptirishning eng muhim yo'l o'quvchilarining o'zlarida to'g'ri hulq-atvorni yuzaga keltirish bilan axloqiy tajribani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta. O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman formalari ularning ongi va his - tuyg'ulariga joili, yorqin otashin so'zning (jamoalarda uyushtiriladigan etik suhbatlar, leksiyalar, munozaralar) ta'siri bu ishni ancha to'ldirishi mumkin. Aktiv ta'sir ko'rsatishning ajoyib ustasi bo'lgan AS.Makarenko ham axloqiy (etik) suhbatlaning chinakam tarafdori edi. Uning o'zi nazariy axloqiy turdagi suhbatlirning konspektini yozar, ularda ekg yaxshi bunday axloqiy nazariyaning katta samalarini kurar edi. Muayyan prinsiplar ishlab chiqilgan bo'lib, axloqqa domr suhbatlar o'sha prinsiplar asosida tuzilishi kerak. Mavhum va abstrakt tuzilishi murakkab mulohazalar bilan toliqtirib quyishga yo'l quyib bo'lmaydi. Odatda, suhbat ugkaziladigan kollektivni, uning yo'nalishiiii bu kollektiv a'zolarining o'zaro munosabatlarini, O'qituvchiga o'qish va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur. Bunday suhbatlarni nihoyatda tez-tez o'tkazib turmaslik darkor. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan mamlakat yoki kollektiv hayotidagi biror vokeaga tugirlab utkazilsa, juda yaxshi natija beradi. Suhbatni yorqin, yaxshilab tanlab olingan konkret misollarni hayotiy voqealar yoki adabiy asarlar yoki adabiy asarlardagi faktlarni hamda kuzatishlarni taxlil qilishdan boshlab umumlashtirish hamda xulosalar chiqarishga o'tish tavsiya etiladi. Emosional tarzda keltirilgan yorqin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish. Kinofilmlar yoki tayetr asarlariga kollektiv bo'lib borish yoxud ularni kollektiv bo'lib eslash) zarur. O'quvchilarining ongigiga sindiriladigan qoidalarni asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi mumkin ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushinib olishga va buning okibatida. dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan usmirlar va katta yoshdagi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishpaytida juda muhimdir. Boshqa tomondan, bu yoshda so'z ta'sirining samaradorligi pasaib ketishi mumkin, chunki o'quvchida rivojlanib boradigan tanqidiy tendensiyalar ko'pinchauni kattalarning dalillariga ehtiyotkorlik bilan ishonmasdan va noto'g'ri tushunib qabul etishga, ularning dalillarini rad qilishga, biror qoida bilan kelishmaslikka, kattalarning iltimoslari va talabalariga qarshi

chiqishga majbur etish mumkin. Boshqa narsa ham nazarda tutish kerak: o'quvchi ko'pinchakattalarning o'ziga aklli kishi deb murojaat qilishlaridai magrurlanib yuradi. Unda bu ipyupchpi oklash, ana shunday munosabatga muposib kishi bo'lish yuzaga keladi. Buning uchun suhbat jarayonida muhokama qilish kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab quyish tavsiya etiladi. O'quvchilarda chuqur va ta'sirchai emosiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda O'qituvchi suhbatni befarqva shavq-zavqsiz emas, balki emosional tarzda jonli qilib o'tkazgandagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining extirosli e'tiqodi o'smirlarga yukishini unitmaslik darkor. O'smirlarning o'zlari his etadigan tuygularni taxminan quyidagi formada anglab olishlariga erishish juda muhimdir: "Nima uchun bu hodisa menda tunchalik gazab va nafrat uyg'otadi?" "Nima uchun men bu xatgi-harakatlardan shunchalik xayratlandim?" Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi o'quvchi shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ko'pincha, o'qituvchiga taqlid qilib, unga o'xshashga harakat qiladi, lekin birinchidan, buni ko'pincha tushunib yetmasdan qiladi, ikkinchidan o'qituvchining tashqi ko'rinish iga va kiliklariga taklid qiladi, chunki u shaxsning namoyon bo'lishini taxlil qilishini va shaxsni barqaror hislatlarini anglab yetishga qodir emas. Usmir va katta maktab yoshidagi o'quvchi ko'pchilik hollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O'smir o'zini katta deb hisoblay boshlagandan e'tiboran kattalarning hatti-harakatlari va ishlariga taqlid qilishga intiladi. Shuning uchun unda tevarak- atrofdaagi kishilarning, ayniqsa o'ziga eng yakin va o'zi uchun eng obro'li kishilarning hatti- harakatiga qiziqish hamda e'tibor berish yuzaga keladi. O'qituvchi qanchalik obro'li bo'lsa, uning e'tikodi, bilimlari, fikrlari, didi o'quvchilarga shunchalik ko'p ta'sir qiladigan bo'ladi. O'smir kattalarning biror hislatlariga taklid qilayotib, ko'pinchabu hislatlarni shunchalik ilib olish bilan birga, ularning salbiy hislatlari va hatti-harakatlarini ham o'ziga singdirib oladi. Agar o'qituvchi muayyan maqsadni ko'zlaydigan va prinsipial matonatli, o'z burchini qatiyat bilan bajaradigan bo'lsa, xuddi shu narsalarni o'z tarbiyalanuvchidan ham talab qilish unga oson bo'ladi. Aksincha, o'quvchining tejanligi, qo'polligi, o'zini qo'lga ola olmasligi, manmanligi o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar va ota-onalar ba'zan tarbiyaviy ishlarda o'zlarining shaxsan namuna ko'rsatishlarining ta'siriga yetarlicha baxo bermaydilar. Xolbuki, ularning qilayotgan ishlari, o'zlarining qanday tutishlari ularning aytgan gaplariga, urgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi. To'g'ri hatti-harakatlarda amaliy tajribani uyushtirish yuqorida ta'kidlab o'tilgandek shaxsni tarbiyalashda muhim asosiy omildir.

Tarbiyachi o'quvchilarda hatti-harakatlarning shunday forma va usullarini tarkib topdirmogi kekakki, bu forma va usullarda tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida yuzaga keladigan o'quvchi e'tikotlari amalga oshsin. Hatti-harakatlarining aytib o'tilgan formalari motivlarni o'quvchining extiyoj va munosabatlarini "moddiylashtirish" ifodasi, vositasi, formasiga aylanib kolgandagina barqaror omilga aylanib mustahkamlanadi. A.S.Makarenko xuddi ana shu ma'noda hulq-atvor gimnastikasi to'g'ri hatti-harakatlarni mashq qilishni uyushtirish zarurligi to'g'risida gapirgan edi.

1) Didaktiv qobiliyatlar bu bolalarga o'quvmaterialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilibetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlardir.

2) Akademik qobiliyatlar - matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar yeoxasiga xos qobiliyatdyr.

3) Persentiv qobiliyatlar.

Nutq qobiliyati:

Tashqilotchilik qobiliyati:

Avtoritar qobiliyati:

Kommunikativlik qobiliyati:

Pedagogik xayol;

Diqqatni taksimlay olish qobiliyati.

Muhim davlat vazifasini «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ini amalga oshirayotgan zamonaviy maktab O'qituvchisining hislatlari, uning ijodiy faoliyati kirib kelayotgan XXI – asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivojlana boradi.

Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini otirib, o'z ishining muvaffakiyagini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy hislatlarini tarbiyalab borishi zarur.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998 yil.
2. I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.
3. I.A.Karimov Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997 yil
4. A.V. Petrovskiy Umumiy psixologiya. T. 1992 yil.
5. N.P. Anikeyeva Jamoada ruhiy muhit. T. 1993
6. E.G. G'oziyev Psixologiya. T. 1994 yil.
7. E.G. G'oziyev Oliy maktab psixologiyasi. T. 1999 yil.
8. L.P. Xoxlova Talabalar uchun psixodogiyadan topshiriqlar. T. 1992 yil.
9. E.G. G'oziyev Tafakkur psixologiyasi. T. 1990 yil.
10. E.G.G'oziyev, M. Mamatov Talabalar psixologiyasi. T. 1992 yil.
11. E.G.G'oziyev. B.E. O'tanov Hamkorlik psixologiyasi. T. 1992 yil.
12. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T. 1991 yil.